

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

**HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI
KAFEDRASI**

SOXADINOVA NASIBA SODIQ QIZI

**O‘TKIR HOSHIMOV ROMANLARIDA KOMPOZITSION
QURILISH**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishi**

**Ilmiy rahbar:
Rasmiy taqrizchi:**

**prof. Hasanov Sh.
dots. Eshniyozova Sh.**

Malakaviy bitiruv ishi hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrasining 2015-yil 22-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan (11-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

dots. Nosirov A.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2015-yil ____ iyundagi yig‘ilishida himoya qilingan va ____ foiz bilan baholangan. (____ -son bayonnoma)

**YaDAK raisi:
A‘zolari:**

prof. Turniyozov N.

SAMARQAND - 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB	
ADIBA SARLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI.....	5
II-BOB	
HAYOT HAQIQATI VA BADIIY HAQIQAT.....	24
III-BOB	
SUJET VA KOMPOZITSIYA BIRLIGI.....	38
XULOSA.....	53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	60

REJA:

KIRISH.

ASOSIY QISM:

I-BOB. ADIB ASARLARINING G‘OYAVIY-BADIIY
XUSUSIYATLARI.

II-BOB. HAYOT HAQIQATI VA BADIIY HAQIQAT.

III-BOB. SUJET VA KOMPOZITSIYA BIRLIGI.

IV. XULOSA.

V. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek nasrida O'tkir Hoshimovning munosib o'rni bor. Yozuvchi o'z asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. U nasrda Abdulla Qahhor, Said Ahmad an'analarini davom ettirib, nasrimizda alohida, o'ziga xos poetik uslub egasi sifatida tanildi. O'tkir Hoshimovning roman, qissa va hikoyalarda so'z san'atining azaliy va bosh muammosi – inson taqdiri va qalbining badiiy tahlili mavjud. O'tkir Hoshimovning katta-kichik deyarli barcha adabiy asarlariga adabiy tanqidchilik munosabat bildirib kelgan. Biroq, bu ishlarda O'tkir Hoshimov ijodi o'rganib bo'lindi, degan xulosaga kelish to'g'ri emas. Jumladan, "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlari xususida bir qator yetuk adabiyotshunoslarning taqriz va maqolalari e'lon qilingan. Bu chiqishlarda romanlarning g'oyaviy-badiiy jihatlari, umumiy poetik belgilari sharhlab o'tilgan. Biz ishimizda "Ikki eshik orasi" romanining bir muammosiga e'tibor qaratamiz. U ham bo'lsa, kompozitsiya masalasidir. Asarning kompozitsion qurilishini kuzatib, yozuvchi badiiy mahoratini o'rganib chiqamiz.

Ma'lumki, kompozitsiya adabiyot nazariyasining muhim unsurlaridan biri bo'lib, har bir asar kompozitsiyasi alohida kuzatuvni talab qiladi. Yetuk ijodkorlar hamisha kompozitsiya masalasiga alohida e'tibor qaratishgan. "Ikki eshik orasi" kompozitsiyasi ham o'ziga xos, original, o'zbek romanchiligi uchun yangilik bo'lgan edi. Ushbu asoslar malakaviy bitiruv ishimizning dolzarbligini asoslaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Taniqli adabiyotshunos Abdug'ofur Rasulov "Ardoqli adib" risolasida adibning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni, asarlari poetikasiga xos umumiy belgilarni o'rganib chiqadi. Ushbu risola sharh xarakteriga ega bo'lib, adibning biografiyasi, asarlariga doir bir qancha yangi ma'lumotlarga, kuzatuvlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Professor Nuriddin Shukurov "Hayotiy badiiyat" maqolasida tarixiy voqelik bilan "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi" sujetlarini qiyoslab tahlil etadi, yozuvchining badiiy mahoratiga baho beradi.

Professor Saydulla Mirzayev “Hozirgi o‘zbek adabiyoti” darsligida 60- 80-yillar romanchiligini tekshirar ekan, O‘tkir Hoshimov romanlariga ham to‘xtalib o‘tadi, romanlardagi mavzu, g‘oya, personajlar qiyofasi kabi masalalarga e‘tibor qaratadi.

Adabiyotshunos Umarali Normatov “Yangi o‘zbek adabiyoti” o‘quv qo‘llanmasida O‘tkir Hoshimov ijodiga alohida to‘xtaladi. Publitsistik maqolalaridan tortib oxirgi badiiy asarlarigacha tahlil qiladi hamda adib ijodini kompleks o‘rganadi. Shuningdek, U.Normatov Dilmurod Quronov bilan qilgan suhbat – “Romanning yangi umri” da O‘.Hoshimov romanlari poetikasiga xos ayrim jihatlarni ko‘rsatib o‘tishadi.

Malakaviy bitiruv ishi oldidagi vazifalar. O‘tkir Hoshimovning qissa, hikoya, romanlarini, jumladan, “Ikki eshik orasi” romani badiiyatini, undagi kompozitsiya masalasini o‘rganish orqali yozuvchi poetik uslubi, adabiyot mahoratiga baho berish, asarlari jozibasini ko‘rsatishdan iborat.

Ishning ilmiy yangiligi. “Ikki eshik orasi” romani kompozitsiyasi ayrim ishlarda umumiy tarzda o‘rganilgan edi. Biz bitiruv ishimizda ayni masalani maxsus o‘rganib chiqishga harakat qildik.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodi. Tadqiqotda milliy istiqlol davrida yaratilgan nazariy qarashlarga, I.A.Karimovning adabiyot haqidagi mulohazalariga: “Adabiyotga e‘tibor – ma’naviyatga, kelajakka e‘tibor”, “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarlarida ilgari surgan tushunchalarga asoslanamiz. Shuningdek, ishda biz psixologik, biografik va qiyosiy-tarixiy metodlarini umumlashtirib tahlil qildik.

Ishning obykti. O‘tkir Hoshimovning o‘n tomlik saylanma asarlari. Ish davomida I.Sulton, N.Shukurov, U.Normatov, H.Umurov, A.Rasulov, D.Quronov kabi adabiyotshunoslarning ilmiy-nazariy qarashlariga tayanildi.

Malakaviy bitiruv ishining hajmi. Ish kirish, uch asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB

ADIB ASARLARINING G‘OYAVIY-BADIIY JIHATLARI

XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti, aniqrog‘i nasri rivojida O‘tkir Hoshimovning munosib o‘rni bor. U o‘tkinchi mayllarga berilmay, so‘z san’atining azaliy muammosi – shaxs jumbog‘i, ijtimoiy adolat tuyg‘usi ifodasi bilan qiziqdi. Adabiyot dunyosida “nasrdagi tarona”, “nasrdagi shoir” atamaları bor. Yangi o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy bilan Said Ahmad haqli ravishda prozaning shoiri deb nom olganlar. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida O‘tkir Hoshimovni ham nasrdagi shoir, yetuk asarlarini esa nasrdagi qo‘shiq, tarona deb atash mumkin. Ilk qissasi “Cho‘l havosi”dan tortib “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobiga qadar – barcha asarlariga xos mushtarak jihat shuki, ular betakror, benazir sirli musiqiy ohang bilan yo‘g‘rilgan. Muallif qo‘lidagi qalam go‘yoki yozmaydi, balkim qalami ichidan so‘zlar musiqa singari quyilib keladi; uning hikoya va qissalari she’rdek, dostondek o‘qiladi, ular yakka sozda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, romanlari ko‘p ovozli simfoniyani eslatadi, hatto uning badialari, publitsistik maqolalarini o‘qiganda inson ko‘ngil xazinasining, tuyg‘ularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib ulkan ijtimoiy mushohadalar, keskin ruhiy dramalar, fojialar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham nafosat tuyg‘usini aslo tark etmaydi, g‘oyat tig‘iz vaziyatlarda ham ajib samimiyat, xazin va nurli bir kuy aks-sado berib turadi. O‘tkir Hoshimov nasrini kitobxonga manzur qilgan joziba sirlaridan biri shunda.

O‘tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkent viloyati Zangiota tumani Do‘mbirobod mavzesida tug‘ildi. Uning bobokalonlari ziyoli, o‘z davrining mashhur kishilari bo‘lgan. Jumladan, XIX asrda yashab o‘tgan ulkan ulamo arab, fors, rus tillarini mukammal bilgan, rus chorizmi bosqini paytida Toshkent mudo-faasi tashkilotchilaridan biri bo‘lgan, “vabo qo‘zg‘aloni”da mahalliy xalqni himoya qilib chiqqan, xalq omonligi yo‘lida jonini fido qilgan ulug‘ zot – Abulqosimxon

eshon O‘tkir Hoshimovning bobokaloni sanaladi, aniqrog‘i, ijodkor – bu tabarruk zotning evarasidir. O‘sha ulug‘ zot qurdirgan, uning nomi bilan ataluvchi madrasa bugun ham yangi Toshkent jamoliga ko‘rk bag‘ishlab turibdi¹.

Adibning otasi – Hoshimov Ataulla oddiy ishchi bo‘lgan. “Mashaqqatli safar” sarlavhali tarjimayi holida yozuvchi otasi haqida shularni yozadi: “Otam eskicha alifbodagi kitoblarni ham, zamonaviy gazetlarni ham muttasil o‘qib borar, kam gap, xiyla tajang, ammo nihoyatda haqparast odam edi.” “Onam – Hoshimova Hakima esa otamning aksicha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edi, - deya davom etadi u. – Qo‘shning mushugi tug‘sa ham joni og‘rigandir, deb achinar, ko‘chada biror bola yig‘lab o‘tirgan bo‘lsa, albatta tepasiga borib boshini silar, biron sabab bilan biz bolalarni qarg‘asa, o‘zi ham qo‘shilib yig‘lab yuborar, o‘sha zahoti ko‘nglimizni olishga harakat qilardi... Onam ikki gapning birida maqol ishlatmasa turolmas, o‘ta sodda, o‘ta yuvosh bo‘lgani bilan ertaklar-u afsonalarning koni edi”.²

O‘tkir Hoshimov qonida, tabiatida ajdodlaridan o‘tgan, xususan, bobosiga xos arboblik, otadan o‘tgan bir oz qiziqqonlik, haqiqatparastlik, onasidan tekkan ko‘ngilchanlik, o‘zgalar dardiga hamdardlik xislatlari o‘ziga xos tarzda mujassamdir. O‘tkirning bolaligi og‘ir urush davrida o‘tdi, u o‘zini “urush bolalari” avlodiga mansub deb biladi. U urush davrining muhtojliklari va mashaqqatlarini ko‘rib, tatib o‘sdi, ham qishloq, ham shahar odami sifatida shakllandi. Keyinchalik bolalik taassurotlari uning ijodida chuqur iz qoldirdi.

O‘tkir Hoshimov ijodini publitsistikadan boshladi, 1962-yili “Po‘lat chavandoz” nomli ocherklar to‘plami bosilib chiqdi. U badiiy ijodga juda erta mayl bildirgan, 5-sinfda o‘qib yurgan kezlari dayoq she‘rlar, hikoyalar mashq qila boshlagan bo‘lsa-da, “To‘rt maktub” nomli ilk hikoyasi 1963-yili matbuotda bosilib chiqdi. Shu hikoya asosida “Cho‘l havosi” qissasi yozildi. “Sharq yulduzi”da bosilgan bu qissa haqida yosh muallif Abdulla Qahhordan maktub oldi. “O‘tkir! “Cho‘l havosi”ni o‘qib suyunib ketdim. Birdan lov etib alanga bilan boshlangan

¹ O‘tkir Hoshimov. Daftari hoshiyasidagi bitiklar. -T., “Sharq”, 2001. 120-123-betlar.

² O‘tkir Hoshimov. Notanish orol. -T., “Yosh gvardiya”, 1990. 6-7-betlar.

ijodning kelajagi porloq bo‘ladi, qissa juda sof, samimiy, iliq, tabiiy, rohat bilan o‘qiladi”, - deyiladi o‘sha maktubda. Bunday iliq so‘zlar yosh yozuvchiga dalda beradi. So‘ng, u birin – ketin “Odamlar nima derkin”, “Shamollar esaveradi” qissalarini yaratdi. Xususan, “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol” qissalari adabiy tanqidchilikda qizg‘in bahs-munozara qo‘zg‘atdi. Bu qissalari uchun u 1976-yili “Yoshlar” mukofotiga sazovor bo‘ldi.

O‘tkir Hoshimov qissalari 60-70-yillar milliy adabiyotimizdagi ilg‘or tamoyillar bilan uyg‘unligi, o‘tkir ma’naviy-axloqiy muammolarni dadil o‘rtaga qo‘yilganligi, eng muhimi, tasvirdagi samimiyat, ichki jozibasi bilan ajralib turadi.

Ma’lumki, O‘tkir Hoshimov ijodga qadam qo‘ygan yillarga kelib mustabid tuzum davri dag‘dag‘a-yu zug‘umlari bir oz yumshagan, jamiyatni demokratlash-tirish boshlangan, erkin fikrlarga qisman yo‘l berilgan edi. Biroq rasmiy doiralarda, “mo‘tabar” minbarlarda, ilm-fan, radio, televideniye, matbuotda bor haqiqatni aytish imkoniyati hamon cheklangan edi. Bunday paytda jamiyatning vijdoni, mehnatkash xalqning ovozi bo‘lish vazifasi adabiyot, so‘z ustalarining zimmasiga tushdi; Abdulla Qahhor, O.Yoqubov, P.Qodirov, ular izidan borgan E.Vohidov, A.Oripov, Rauf Parfi, Shukur Xolmirzayevlar chindan ham haqiqat, adolat jarchisi xalq dilining tarjimoni sifatida maydonga chiqdilar. Ular yaratgan eng sara asarlar ijtimoiy tafakkur sohalari – tarix, falsafa, sotsiologiya, siyosat, adabiyotshunoslik va publitsistika bajarishi lozim bo‘lgan talay vazifalarni ham ado etdi. Shu tariqa adabiyotda “gap aytish”, “masala ko‘tarish” tamoyili kuchaydi, muammoli she‘r, doston, muammoli drama, hikoya, qissa, roman turlari paydo bo‘ldi; ayni paytda didli, kuyunchak kitobxon asardan albatta, “muhim gap” kutadigan bo‘lib qoldi, tanqidchilikda asarlarni ularda ko‘tarilgan dolzarb muammolarga qarab baholash muayyan udum tusini oldi.

O‘tkir Hoshimov xuddi shu yo‘ldan borib qator publitsistik hikoya, qissalar yaratdi. Uning “Teraklar yaproq yozdi”, “Dehqonning bir kuni”, “Nur borki, soya bor”, “Kvazarlar” kabi roman, qissa, hikoyalari asarlardan “gap kutadigan” kitobxonlarni g‘oyat hayajonga soldi. Maktab bolalarining umri paxtazorda o‘tayotgani, dori sepilgan g‘o‘za bargidek erta xazon bo‘layotgani, yangi tushgan kelinchak-

ning hayotidagi eng shirin daqiqalari erksiz og‘ir mehnat girdobida kechayotganini qishloqdagi, kasalxonadagi, savdo sohasidagi, oliy o‘quv yurtlaridagi, redaksiyalardagi – O‘tkir Hoshimov asarlarida hayajon, iztirob bilan qalamga olingan bu xil hayotiy muammolar talqini o‘quvchilarni o‘shanday ijtimoiy illatlarga nisbatan fikrini shakllantirishda, qahrini qo‘zg‘atishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu tur asarlarda publitsistik ruh kuchli, muallif hayot jumboqlariga bo‘lgan munosabatini oshkora, jo‘shqin ifoda etadi, dildagi gaplarini kuyunib, yonib baralla to‘kib soladi; asarlarida ko‘pincha – publitsist gazetachi so‘zi bilan yozuvchi tili bir-biriga qo‘shilib ketadi, zotan ulardagi bosh qahramonlarning aksariyati kuyunchak ziyolilar, jurnalist adiblardir.

“Shuni ham aytish kerakki, O‘tkir Hoshimovning muammoli roman, qissa va hikoyalarida so‘z san’atining azaliy bosh muammosi – inson taqdiri va qalbining badiiy tahlili mavjud; muallif dolzarb ijtimoiy muammolar talqini bilan yondosh holda ko‘p o‘rinlarda personaj ruhiyatidagi g‘oyat nafis jarayonlarni mohirona ifoda etadi. O‘tkir Hoshimov ijoddagi ilk qadamlaridayoq inson ma’naviyati, ruhiyati, qalb haqiqati tadqiqotchisi sifatida ko‘ringan edi. “Cho‘l havosi”, “Muhabbat” “Odamlar nima derkin”, “Shamol esaveradi” nomli hikoya va qissalari shundan dalolat beradi. Keyinchalik, u dolzarb ijtimoiy muammolar talqiniga ko‘proq moyillik bildirib, yuqorida tilga olingan muammoli asarlarni yaratgan kezlarida ham inson obrazi, inson ma’naviyati, ruhiyati tahlilini aslo e’tibordan chetda qoldirgan emas. Bu jihatdan “Qalbingga quloq sol”, xususan, “Bahor qaytmaydi”, “Dunyo-ning ishlari” qissalarini eslash kifoya”.³

60-70-yillar adabiyotida adashgan odamning fojiasini aks ettirgan o‘nlab asarlar paydo bo‘ldi, ammo ular orasida san’at darajasiga ko‘tarilganlari oz, juda oz “Bahor qaytmaydi” qissasida yozuvchi iste’dodli, biroq iste’dodi qadriga yetmagan, yetolmagan, ulug‘ maqsadlardan mahrum xudbin yigitning tanazzul tarixi-ruhiy-ma’naviy inqirozini san’atkorona tahlil etib berdi. Ana shu san’atkorona tahlili – tasvirning tuyg‘ularga boyligi va samimiyati bilan ko‘pchilik qalbiga yo‘l topdi, ko‘plarni hayajonga soldi. Qissa matnida boshdan-oyoq muallifning o‘ta

³ Normatov U. Yangi o‘zbek adabiyoti, -T., "Universitet", 2007. 153-bet.

nozik va nafis kuzatishlari, yozuvchi qalbi tebranishlari, rang-barang kechinmalari, zavq-shavqi, armon o'kinchlari, qisqasi, xilma-xil tuyg'ular nafasi ufurib yotibdi. Mana qissa xotimasidan kichik bir parcha, asar bosh qahramoni Alimardon halokati dan keyingi tabiat manzarasi tasviri:

“Negadir shu oqshom oftob juda qiynalib botdi. Ufq etagida uzoq osilib turdi-da sekin-asta yer ortiga cho'kib ketdi.

Yana bir necha kundan keyin yayrab-yashnab bahor keldi... Sahiy ko'klam ko'plar qatori Alimardonning ham qabrini burkadi. Maysalar orasida ochilgan bittagina qizg'aldoq tong shudringiga qadah tutdi. Erta-indin to'kilib ketishi, o'zidan na muattar bo'y, na meva qolishidan bexabar yal-yal yondi...”⁴

Bu so'nggi satrlar adadsiz alam-o'kinchlar, ko'z yoshlar bilan qog'ozga tushgani shundoqqina sezilib turibdi. Qahramonning dafn kunida, o'sha motamsaro oqshom payti quyoshning qiynalib botishi, ufq etagida uzoq osilib turishi, so'ng umidsiz alfozda sekin-sekin yer ostiga botib ketishida dillarni xun qiladigan, ko'zlarga yosh keltiradigan mungli ohang bor. Hamma yoqni nurga, rangga bezagan, qahramon qalbini maysalarga burkagan sahiy ko'klam, qahramon qabri ustida yal-yal yongan qizg'aldoq, uning omonat umri xususidagi nafasat to'la mungli tasvir, bir dam yashnab, erta xazon bo'lgan inson umri haqidagi xazin qo'shiqning so'nggi nidolari, titroqlari kabi eshitiladi.

O'tkir Hoshimovda nafasat tuyg'usi behad kuchli. Hatto, u aldangan odamning ma'naviy inqirozi, fojeasi, halokati tasvirida ham shu tuyg'uni saqlab qoladi. Ayniqsa, u yaxshi, olijanob, ma'naviy barkamol shaxslar qalbi, tabiati tasvirida o'zini nihoyatda erkin his etadi. Yozuvchining ijobiy qahramonlari aksari go'dakday beg'ubor, nafasat tuyg'usiga boy, hissiyotchan, o'ta ta'sirchan odamlar. Ehtimol, O'tkir Hoshimov asarlari qahramonlarining o'zbek kitobxonlari ko'pchiligini asir qilgan omillardan biri shundadir. Hayotning shafqatsiz haqiqatini shafqatsiz, dag'al bo'yoqlarda ifoda etadigan asarlar ruhida tarbiyalangan kitobxonga O'tkir Hoshimov asarlaridagi o'ta nafis, hissiyotga boy ifodalar, soddadil, romantik o'ta hissiyotchan, ta'sirchan qahramonlar bir oz jo'nroq, kitobiyroq

⁴ Hoshimov O'. Bahor qaytmaydi. -T., Yozuvchi, 1993. 4-bet.

tuyulishi mumkin, nachora, yozuvchining tafakkur va ifoda tarzi barchaga birdek ma'qul bo'lishi shart emas. Biroq adibning uslub tarzini boshqa bir uslubiy yo'nalishga zid kelgani uchun ranjitish, rad etish, yerga urish o'rinsiz. Adabiyotda badiiy tafakkur, ifoda tarzi qanchalar rang-barang bo'lsa, shuncha yaxshi. Adib asarlarida personaj talqinidagi nafosat tuyg'usi bilan yo'g'rilgan liro-romantik yo'nalish alohida jilo bilan namoyon bo'lgan ekan, bu hol milliy nasrimizning boyligidir.

Yozuvchi ijodiga xos lirik tarona uning "Dunyoning ishlari" qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar Ona haqidagi, Ona qalbining cheksiz sahovati haqidagi o'ziga xos qasidadir. "Dunyoning ishlari" bir qarashda avtobiografik asar, yozuvchining o'z bolalik yillari, yoshlik, yigitlik davri xotiralari, onasi, qarindosh-urug'lari, tanish odamlar hayotidan bahs etadi. Unda xilma-xil voqealar hikoya qilinadi, biroq asar markazida Ona obrazi turadi. Asardagi ona farzandi, farzandi oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor ming-minglab onalarimizning timsoliga aylandi.

Qissa zavq-shavq bilan shoirona yozilgan. "Dunyoning ishlari"ni qissa emas, doston deb atashni istardim, - deydi Said Ahmad. – U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib o'z onalarimizni eslab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi.

Yozuvchi o'z onasining cheksiz qalb sahovatlari haqida so'z ochar ekan, ayni vaqtda uni yetarlicha qadrlay olmaganidan afsuslanadi.

Qissa bir-biri bilan uzviy bog'langan mustaqil voqeyiy hikoyalardan tashkil topadi.

"Dunyoning ishlari" boshdan-oyoq nihoyatda yorqin, ajib bir milliy bo'yoqlar bilan jilolangan. Ayni paytda asar teran bir umuminsoniy, baynalminal tuyg'ular bilan yo'g'rilgan. Qissada shunday mulohazalar bor:

"Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida

turib bir odam aytgan oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq, dunyoning bu chekkasida turib Ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go‘dak bemalol orom oladi”.

Ona allasining sirli-sehrli kuchini muallif avvalo Alloh so‘zi Qur’oni Karim oyatlari tilovati sadosi bilan qiyos qiladi. Qabristondagi hujra tomonidan tilovat sadosi eshitiladi, xuddi shu payt hovli tomondan ona allasi yangraydi: “Rabbano-o-o, rabbano-o-o...” “Allayo-alla...” Hikoyachi ajib bir holatga tushadi “Bir tomonda tilovat sadosi, bir tomonda alla... Ajab, ular bir-biriga halaqit bermas, bir-birini rad etmas”. Orada qandaydir sirli mushtaraklik mavjud.

Qissa muallifi onasidan alla eshitgan daqiqalardagi holatini eslab ketadi; Ona aytgan satrlar oddiy qo‘shiq emas, uning ovozida qandaydir boshqa narsa, mungmi iltijomi, tinglovchi qalbini asir etadigan ilohiy sehr borligini uqtiradi; “Keyin katta bo‘lganimda ham qayerda alla eshitsam, yuragim shirin orziqish bilan talpinib ketar, nega bunaqa bo‘layotganini o‘zim bilmas edim” deb yozadi.

Yozuvchi dunyoning ikki chekkasida o‘zi guvoh bo‘lgan ikki hodisani – safar chog‘i qirg‘iz o‘tovida qirg‘iz ayol aytgan alla va Kislovodskda sibirlik juvondan alla eshitgan chog‘dagi g‘aroyib holati – yurakdagi shirin orziqish tuyg‘ularini to‘kib soladi. Qirg‘iz va rus ayollarining o‘z ona tillarida aytgan dil rozlari muallif qalbini onasidan eshitgan alla kabi tug‘yonga soladi, allalaydi.

Shu tariqa yozuvchi voqea-hodisalarni shunchaki hikoya qilib bermaydi, hodisa bilan bog‘liq tuyg‘ularning ajib sehrini, nafosatini kitobxon qalbiga olib kirishga muvaffaq bo‘ladi. Qissaning deyarli barcha boblari ayni shu ruhda bitilgan.

“Dunyoning ishlari” qissasiga 1981-yili Oybek nomidagi Respublika Yozuvchilar uyushmasi mukofoti berildi.

O‘tkir Hoshimov badiiy adabiyotga jurnalistika chorrahalari orqali kirib keldi. Uning 1977-yili yozilgan ilk romani – “Nur borki, soya bor...” jurnalistik faoliyatining, tajribalarining o‘ziga xos yakuni, badiiy sarhisobidir. Roman markaziy qahramoni Sherzod muallifga tengdosh, ayni o‘zi kabi yozuvchi – jurnalistdir. Sherzod timsolida yozuvchi kitobxonni ayni o‘zi hayotda duch kelgan

muammolar girdobiga olib kiradi. Jurnalist qahramon bilan birga kitobxon goh pomirning uqubatli yo'llaridan o'tadi, yer ostiga tushib metro quruvchilari huzurida bo'ladi, inson qoni rangini eslatuvchi tuproq hidini tuyadi; goh Farg'onaning olis, maftunkor qishlog'idagi qahramon tug'ilib o'sgan mo'jaz xonadonga, dimog'dor raisning dabdabali kabinetini-yu, serhasham mehmonxonasiga kirib qoladi, qishloq hayoti, maktab va mehnat muammolari ustida o'y suradi; goh shahar kasalxonasida odamning mavqeiga qarab muomala qiluvchi bo'lim mudiriga, savdo xodimi Sayfi Soqiyevichga to'qnash keladi. Xastalikning bir xona ichida ma'naviy tuban kimsa bilan turishning iztiroblarini yurakdan his qiladi. Sayfi Soqiyevich bilan tanishuv shu bilan tugamaydi, uni kitobxon oilasida, serhasham saroyida, ish kabinetida takror-takror uchratadi; bu uchrashuv va tanishuvlarning har biri meshchanlarcha hayot kechirishga, meshchanlik psixologiyasiga o'qilgan aybnomadek tuyuladi. Yozuvchi Sayfi Soqiyevichning o'g'li Sirojiddin bahonasida oliy o'quv yurti, ilm dargohidagi mojarolarni qalamga oladi; Sirojiddinning oilaviy turmush tarzi tasviri asarning eng puxta sujet tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Qahramonning hayot sarguzashtlari – uning shirin va hazin bolalik xotiralari, barbod bo'lgan ilk sevgi iztiroblari, alomat qiz Zuhra bilan muloqotlari, Zuhra oilasi tarixi o'zicha mustaqil bir qissani tashkil etadi. Buning ustiga aktrisa Zuhra muallif uchun hayotning yana bir jabhasiga – teatr, san'at olamiga kirib borish, san'at va adabiyot muammolariga munosabat bildirish imkonini beradi.

Roman strukturasi, uning asosiy sujet yo'nalishlari, unda qamrab olingan hayotiy muammolar doirasi, qisqacha aytganda, ana shulardan iborat.

Asar bosh qahramoni ehtiros kishisi, yozuvchi – jurnalist bo'lganidan arziyas narsadan ham qalbi tug'yonga tushadi, salgina qalloblik, nopoklik aralashgan joyda o'zini qo'yarga joy topolmaydi, hodisalar ustidan tez hukm chiqaradi. Muallif qahramon qalbida jo'sh urgan ehtiroslar to'lqinidan salmoqli ma'no axtaradi, uning shaxsiy kechinmalari ko'pincha ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, uni qiynagan jumboqlar aksari roman yozilgan 70-yillar odamlarining tashvishi, "tili uchida turgan gaplar" bo'lib chiqadi. Shunisi muhimki, qahramonlar qalbidagi

ehtiroslar tugʻyoni yozuvchining ilk hikoya va qissalaridan farqli oʻlaroq, sentimentallikdan holi, bu yerdagi hislar tugʻyoni hamisha kitobxonni kurashga chorlaydi; bu hol qahramonga qandaydir shijoat, romantik tus baxsh etadi. Oʻtkir Hoshimovning tengdosh qalamkash doʻsti Shukur Xolmirzayev: “Oʻ.Hoshimovning ijodida kuchli, jiddiy qahramonlar paydo boʻlyapti. Men bu yozuvchi doʻstimni kuzatib, ijodini oʻzimcha tahlil etib yurgan qalamkash sifatida shuni dadil ayta olamanki, Oʻtkirdagi uslubiy izlanishlar – uning qahramon tanlashida aks etmoqda”,⁵ - deganida toʻla haq. Bunda u birinchi galda “Nur borki, soya bor”dagi Sherzodni nazarda tutgan. Darhaqiqat, Sherzod joʻshqin faoliyat kishisi, u inson shaʼnini, erkini hamma narsadan ustun qoʻyadi, har qanday ogʻir, murakkab sharoitda ham eʼtiqodga sodiq qoladi, shu bilan birga yuksak eʼtiqodini, orzu-ideallarini barqaror etish uchun dadil kurash olib boradi, turmush chigalliklariga amaliy chora axtaradi.

80-yillarga kelib Oʻtkir Hoshimov ijodida milliy adabiyotimiz istiqboli uchun muhim ahamiyatga molik yangi tamoyillar roʻy berdi. Yozuvchi bir tomondan, radio va televideniye orqali jiddiy chiqishlar qildi, u televideniya olib borgan “Bahs” koʻrsatuvi butun respublikani “oyoqqa turgʻizdi”. Shuningdek, matbuotda birin-ketin oʻtkir publitsistik maqolalar eʼlon qildi. Xususan, “Qalbning oppoq daftari”, “Avlodlarga nima deymiz?”, “Davlat siri”, “Mantiq qani?” kabi maqolalarining har biri ularda oʻrtaga tashlangan maʼnaviy, ijtimoiy-siyosiy muammolarning koʻlami, salmogʻi taʼsir kuchi jihatidan yetuk badiiy asarlarga teng deb baholandi.

Ayni paytda adib yaratgan eng yaxshi asarlar avvalgilaridan farqli oʻlaroq, oshkora publitsistik talqindan holi. Bu davrga kelib adib ijodida publitsistik faoliyat bilan sof badiiyat orasida muayyan ajralish roʻy berdi. Muallifni endi kundalik dolzarb masalalar emas, koʻproq azaliy-boqiy maʼnaviy muammolar, inson taqdiri, inson qalbining jumboqlari koʻproq qiziqtiradi. Bu narsa “Ikki eshik orasi” romanida ayniqsa ravshan koʻrinadi.

⁵ Uslub, badiiy shakl muammolari, (Yozuvchi Shukur Xolmirzayev bilan suhbat). U.Normatov. Yetuklik. -T., Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1982. 352-bet.

“Ikki eshik orasi” – yirik ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy roman. Asar uzoq davrlik voqealarni, ko‘plab kishilar taqdiri, hayot yo‘li, xilma-xil ijtimoiy-axloqiy muammolarni o‘z ichiga qamrab oladi. Roman voqealarining bir uchi 30-yillarning boshlariga, qishloqdagi kolxozlashtirish davri voqealariga borib tushsa, ikkinchi uchi 70-yillarning oxiriga kelib taqaladi. Shunday bo‘lsa-da, romanning markazida fashizmga qarshi olib borilgan urush davri, urush yillaridagi o‘zbek qishlog‘i hayoti, urush va inson, urushning kishilar taqdiriga ko‘rsatgan chuqur ta’siri ular qismatida, zurriyotida, dilida qoldirgan jarohatlari muammosi turadi. Yozuvchi ikkinchi jahon urushi kishilarimiz uchun zo‘r sinov bo‘lgani, bu sinov paytida o‘zbek kishisiga xos bo‘lgan noyob fazilatlar favqulodda bir kuch bilan yuzaga chiqqani, kishilarimizdagi otashin vatanparvarlik, cheksiz muruvvat, sadoqat tuyg‘ularini ilhom va ehtiros bilan qalamga oldi. O‘sha sinov kezlarida faqat o‘z jonini, manfaatini o‘ylab, munofiqlik, xiyonat ko‘chasiga kirgan ayrim kimsalar qilmishini qahr-g‘azab bilan qoralaydi, ma’naviy inqirozini, fojeasini ochadi, Qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashashning ma’nosi, insonning insonlik sha’ni burchi, mas’uliyati, e’tiqodi masalalarini ko‘taradi, kitobxonni ular haqida o‘ylashga, bahsga chorlaydi. Qanday yashash va yashamaslik kerak, degan savol asarning yetakchi falsafasi darajasiga ko‘tariladi. Bu o‘git-falsafa personajlardan biri – Orif oqsoqol tomonidan berilgan ikki eshik orasi to‘g‘risidagi xalqona hikmatda o‘z yakunini topgan. U deydi: “Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotganida qo‘lidan kelgancha savob ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g‘isht qo‘yib ketadi. Yana bir xillari bor: o‘sha imoratdan aqalli bitta g‘isht o‘g‘irlab ketgisi keladi. O‘g‘irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshik oldiga borganda baribir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi...” Muallif shular bilangina cheklanmaydi, bosqinchilik urushining insoniylikka, insoniyatga zid mohiyati, fashizm harbiy jinoyatining mudhish oqibatlarini haqida cheksiz alam bilan yozadi. Binobarin, bu roman boshdan-oyoq urushning achchiq saboqlari orqali odamlarni hushyorlikka chorlovchi, umuman urushga qarshi qaratilgan asardir. Romanning muhim ijtimoiy, umuminsoniy, zamonaviy qimmati ham ana shunda.

Yozuvchi uzoq davrlik voqealarni, ko‘plab insoniy taqdirnlarni bosh qahramonning bir necha soatlik kechinmalari ichiga jo etadi. Shunisi ham xarakterliki, muallif voqealarga bevosita aralashmaydi, muxtasargina so‘z boshidan keyin u bevosita ko‘rinmaydi, so‘z, ixtiyor butunasiga qahramonlarning o‘zlariga beriladi. Qahramonlar esa o‘z boshlaridan o‘tganlarini o‘zlari so‘zlashga kirishadilar.

Shu paytga qadar bizda asar voqealarini qahramon tilidan hikoya qilish usuli bor edi. Bunda voqea ko‘proq bir, goho ikki personaj tili, nigohi orqali berilar, ba‘zan bir necha personaj boshidan o‘tganlarini hikoya qilib berar edi. Bir emas, bir necha personajlar tilidan hikoya qilingan asarlarda har bir personaj sarguzashti ko‘pincha mustaqil, tugal hikoya yoki qissa shaklini olar edi. “Ikki eshik orasi”da esa, o‘zgacha manzaraga duch kelamiz. Bir-ikki epizodni mustasno qilganda unda alohida mustaqil, tugal sarguzasht yo‘q; asarda bir necha sarguzashtlar yondosh holda bir-biri bilan tutashgan, chirmashgan holda berilgan. O‘nga yaqin har xil tabiatli, har xil yoshdagi personaj, buning ustiga ular umr pog‘onasining turli bosqichlarida turib sarguzashtlarini hikoya qiladilar. Ko‘p o‘rinda bir hodisa ikki yoki bir necha personaj nuqtai nazaridan hikoya qilinadi, baholanadi. Masalan, Ra‘noning xiyonati ham uning o‘zi, ham uni shu yo‘lga boshlagan Umar zakunchi, ham Robiya tili, nuqtai nazaridan beriladi; bir hodisa uch shaxs nigohida uch xil talqin etiladi, bu hol asarga o‘ziga xos polifonik xususiyat, serjilo ma‘no baxsh etadi, asar dramatizmini kuchaytiradi, o‘quvchida hodisaga nisbatan qiziqishni oshiradi.

Asarda o‘nlab katta-kichik personajlar mavjud. Qimirlagan jon borki, deyarli barchasi davr dard-tashvishi bilan nafas oladi. Bir-ikki epizodda ko‘rinish beradigan raykom kotibi Abdurahmonov, muallim Samadov, Rashid abzi, Vasya amaki, Parcha opa, Zuhra kelin kabi personajlardan tortib, asarning markaziy personaji Muzaffarga qadar – hammasi murakkab, chigal, mushkul taqdir egalari. Yozuvchi yetakchi qahramonlar, xususan, Muzaffar, uning tuqqan onasi Ra‘no, boqqan onasi Robiya, otasi Shomurod, o‘gay otasi Umar zakunchi, sevgilisi Munavvar, “Qora amma”, xususan duma, Orif oqsoqol, Bashoratxon, Komil tabib obrazlarini, ularning qalb dunyosini keng va har tomonlama ochadi.

Ma'lumki, O'tkir Hoshimov ilk romani "Nur borki, soya bor"da hayotning dolzarb muammolarini ko'rsatishga moyillik kuchli edi, shunga ko'ra uni shartli ravishda "muammoli roman" deb atash mumkin; "Ikki eshik orasi"da esa odamlar taqdiri bilan qiziqish ustun, "taqdirlar romani" desa bo'ladi. Romandagi taqdirlar o'z navbatida konseptual xarakterga ega. Yozuvchi qahramonlar taqdiri talqinida hamisha romandagi bosh konsepsiyadan, ya'ni odamlar qismatidagi urush bilan aloqador jihatlardan kelib chiqib ish ko'radi. Umar zakunchi obrazini va boshqa ayrim personajlarni mustasno etganda, qolgan barcha qahramonlar qandaydir urush jafosini chekkan urush odamlaridir. Muzaffar urush davri chigalliklari tufayli tirik yetimga aylanadi, ko'p jabr-sitamlarni boshdan kechiradi va pirovardida uning sevgi fojiasi ham urush keltirgan chigalliklarga borib taqaladi. Sevgilisi Munavvar urush qoldirgan ma'naviy jarohatlar qurboni bo'ladi. Tuqqan onasi Ra'no urush to'zonlari ichra dovdirab, yo'ldan toyib hayot so'qmoqlariga kiradi; boqqan onasi Robiya ko'ngil bergan yigitidan judo bo'lib tutingan tog'aga xotin, Muzaffarga esa o'gay ona bo'lib qoladi. "Qora amma" o'g'lining sevgilisini o'z inisiga unash-tirishga, ikki o'g'li bilan judo bo'lgan Oqsoqol esa o'z kelinini boshqa birovning nikohiga o'tkazishga majbur bo'ladi.

Roman muallifi ko'p o'rinlarda qahramonlarning g'oyat keskin, murakkab, chigal, mushkul daqiqalardagi ruhiy holatlarni mahorat bilan ifoda etadi. Ayniqsa, Oqsoqol olomon oldida kelinini ko'ngil qo'ygan nogiron yigitga nikohlab berish lavhasi, o'sha murakkab lahzalardagi Oqsoqolning g'oyat tig'iz, ruhiy holati; Komil tabibning Robiyaga jangda halok bo'lgan o'g'li ko'ngil rozini izhor etishdagi dramatik kechinmalari, jangda yarador bo'lib qaytgan Shomurodning sevikli go'zal xotini xiyonatidan voqif bo'lgan kezlardagi iztiroblari, Ra'nodagi ikkilanish holatlari, so'ng aldanib chekkan alam va pushaymonlari, adadsiz qalb qiynoqlari – bunga o'xshash lavhalar tasviri kitobxonni larzaga soladi.

"Asar muallifi qahramonlarning ruhiy dramasini ochish bilan barobar ularning qalb boyligi va sahovatini ham ko'rsatadi. Bir talay personajlar tabiati va xatti-harakatidagi mehnatkash xalqimiz xarakteriga xos fazilatlar, o'zbek xalqi turmush tarzi yorqin ifodasini topgan. Xususan, Husan duma, Oqsoqol, Komil

tabib obrazlari, ularning oilasidagi tartibotlar o'zbek turmush tarzining ko'p yaxshi an'analarini ko'z-ko'z qilib turadi. Bu uch shaxs go'yo mehnatkash xalq hayoti, xarakterining uchta muhim qirrasini ifodalaydi: Orif oqsoqol – rahbar xodim, Husan duma – tadbirkor, ishbilarmon dehqon, Komil tabib xalq ziyolisi, Orif oqsoqol mehnatkash xalq orasidan chiqqan, butun hayotini shu mehnatkash xalq manfaatlari yo'lga tikkan, kecha-yu kunduz shu mehnat ahli tashvishi bilan nafas oluvchi, bir oz dag'al, shang'i ko'rinsa-da nihoyatda yoqimtoy chol. Unda ajib bir joziba bor. Qishloq ahli uni nihoyatda hurmat qiladi, hamma unga talpinadi, uning har bir so'zi el uchun qonun; yo'q, buyruq emas qonun! Mehnat ahli oqsoqolning so'zini, ishini o'z so'zi, o'z ishi deb biladi. Chunki, oqsoqol hech qachon elni aldamagan, faqat uning g'amini yegan, manfaatini degan. Shunisi muhimki, Oqsoqol vaziyat taqozosi bilan mansabdan – raislikdan chetlatilganda ham bir daqiqa bo'lsin, el-yurtdan uzoqlashmaydi, mansabdan ketgani uchun aslo o'kinmaydi, qishloq ahli esa hamon uni o'zlarining ma'naviy rahnamosi deb biladi. Bu odam oilasidagi og'ir ko'rguliklar yuz berganda boshga tushgan musibatlar tufayli dil-dilidan o'rtangani holda, baribir o'zgalar baxti, oromini o'ylab ish ko'radi”⁶.

Husan duma ham do'sti Oqsoqol kabi qalbi daryo odam. Duma oilasi adolatsizlik tufayli sarson qolgan Robiyani asrab, o'z farzandidek tarbiyalab voyaga yetkazadi. Duma ham urush tufayli og'ir judoliklar alamini tortadi. Shu og'ir judoliklarni yengib, el-yurt manfaati yo'lida tinimsiz ter to'kadi. Bu odam – asl mehnatkash, tadbirkor dehqon. Uning tadbirkorligi, mehnat shijoatidan el-yurt ko'p naf ko'rgan. U oilasida, hovlisida ajoyib-g'aroyib tartib o'rnatgan, uning xonadonida hamma narsa joyida, o'zaro mehnat taqsimoti joriy etilgan barcha o'z ishi bilan band.

Komil tabib ham xuddi Oqsoqol va Duma kabi urush jafosini chekkan shaxs, u ham dilda alam-iztiroblari bilan o'zgalar dardi, jarohatiga chora qidiradi, uning shifobaxsh qo'li ko'plarning og'rig'iga malham bo'ladi.

⁶ Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. -T., “Universitet”, 2007. 161-162-betlar.

Urushda bedarak ketgan yolg'iz farzandi dog'ida o'rtansa-da, o'z dardini ichiga yutib, nuqul o'zgalar g'ami, oromi, baxtini o'ylaydigan "Qora amma", o'sha og'ir yillarda traktor minib, yoshlarni o'z yoniga olib, el-yurt mushkulotini oson qilgan, urush qurboni bo'lgan eri salomatligi, ko'ngli deb o'z oromidan voz kechgan Bashoratxon, ipakday mayin-muloyim, o'zgalarga mehribon qo'li gul chevar, dono ayol qo'qonlik Oysara opa – bu xil fidoyi onajonlar romanga zeb berib turibdi.

Yozuvchining mahorati san'ati faqat jonli, hayotiy milliy xarakterlar yaratish, qahramonlar tabiatiga xos insoniy fazilatlarni, dilidagi tashvish, tug'yonlarni mohirona ifoda etishdagina emas, xarakterlar ruhiyatidagi o'ta nozik, tushunish, tushuntirish mushkul bo'lgan murakkab kechinmalar silsilasi tasvirida ham namoyon bo'ladi. Birgina misol: Muzaffar oradan o'n yil o'tsa-da, halok bo'lgan sevgilisi Munavvar yodi bilan tanho yashaydi, yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsa-da, uylanmay, boshqa birovga ko'ngil qo'yolmay qariyalarni xunob qiladi. Onasining o'limi xabarini eshitganda iztirob chekadi, ta'ziasiga o'tlanadi, ammo onasi xonadoniga yaqinlashganda o'lim xabari tufayli dastlab ko'nglida uyg'ongan farzandlik mehri so'nib, ortga qaytishni o'ylab qoladi.

Xo'sh, nima uchun? Muzaffarning uylanmay bo'ydoq yurishi tarkidunyo-chilik emasmi? Onaga bo'lgan sovuq munosabati toshbag'irlik oqibatimi? Aslo! Gap shundaki, Muzaffar halol, vijdonli, qalloblikni aslo ko'tarolmaydigan yigit, u farzand sifatida har holda onasini unutolmaydi, biroq ona xiyonati, bu xiyonat tufayli otasi hamda o'zining hayoti alg'ov-dalg'ov bo'lib ketganligini ham sira esdan chiqarolmaydi. Buning uchun biz Muzaffarni ko'nglida kek saqlaydigan farzand deya olmaymiz.

Muzaffar shaxsiy hayotda baxtsiz, omadsiz. Ammo uni ojiz-notavon deya olmaymiz. Chunki Muzaffar aqlli, andishali farzand sifatida onaga qarshi borolmaydi. Buning ustiga onaning holi ma'lum, u o'zi yo'l qo'ygan gunoh jabrini torta-torta alam iztiroblar, armon-u pushaymonlar olovida kuyib ado'i tamom bo'lgan.

Ma'lumki, asar asosan urush orqasidagi o'zbek qishlog'i hayotiga bag'ishlangan, unda o'sha yillardagi qishloq hayoti keng ko'lamda ifoda etilgan. Ayni paytda bir necha o'rinda askar yigit Kimsan Husanov hikoyasi orqali jang lavhalari ham gavdalan tirilgan. Ularda fashizm harbiy jinoyatlari dahshatlari, jangda ishtirok etgan o'zbek kishisining jabrdiydalarga nisbatan cheksiz mehri, yovuzlarga nisbatan qahri, matonati ham zo'r mahorat bilan ko'rsatilgan. Romanning jang lavhalari aks etgan "Mehr va qahr" bobi "Yosh leninchi" gazetasida e'lon etilganda rus adibi K.Simonov "Xalxin – Golldan Berlingacha" kitobida nomi tilga olingan sobiq jangchi, namanganlik tarix o'qituvchisi Hasan Abdullayev uni o'qib, o'sha kuniyoq roman muallifiga o'z hayajonlarini izhor etib maktub yo'llaydi; o'sha bobda qalamga olingan jang lavhasining g'oyat jonli, hayotiy va ta'sirchan chiqqanini alohida ta'kidlaydi. "Ukajon, basharti urushga borganmisiz?!" – deya xitob qiladi.

"Ikki eshik orasi" romani 1986-yili Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy asar qimmatini, darajasi birinchi galda unda hayot va shaxsning yangicha konsepsiyasi hamda badiiy talqini, ifodasiga qarab belgilanadi. Shu yuksak umumbashariy adabiy mezonlar asosida yondashiladigan bo'lsa, O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani 90-yillar o'zbek adabiyotida jiddiy voqea, muhim yangilikdir. Romanning kitobxonlar tomonidan iliq kutib olinganligi, tanqidchilikda yuksak baholanganligi, xorijda ham qiziqish uyg'otgani, oliy o'quv yurtlari adabiyot dasturi va darsliklarga kiritilgani tasodifiy emas.

Bir qarashda roman yangi-yangi o'zbek adabiyotida muayyan an'anaga aylanib qolgan mavzu-muammolar – mustabid tuzum tanqidi, afg'on urushi, "o'zbeklar ishi" qurbonlari haqida bahs yuritadi. Bu mavzu-muammolar haqida ko'p yozildi, O'tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar" romani orqali bu xususdagi o'zining betakror, salmoqdor, yangi so'zini aytdi, aytganda ham o'quvchini larzaga soladigan, o'yg'a toldiradigan qilib ayta oldi. Badiiy asarda, xususan, romanda yozuvchining yangi so'zi u yaratgan jonli va ko'lamli shaxslar

timsoli orqali gavdalanadi. “Tushda kechgan umrlar” romanidagi talay personajlar, xususan, bosh qahramon – Rustam va Komissar obrazi yozuvchining zamonaviy adabiyotdagi badiiy kashfiyoti bo‘ldi.

Rustam – fojiaiy shaxs. Katta hayotga endigina kirib kelayotgan, ona yurtning yetuk bir farzandi, sodiq fuqarosi bo‘lishi, el-yurt uchun ko‘p ishlar qilishi, sevgilisi vasliga erishib baxtli hayot kechirishi mumkin bo‘lgan bu navqiron o‘g‘lon umri o‘n gulidan bir guli ham ochilmay turib xazonga aylanadi. Uning hayotini mustabid tuzum, totalitar siyosat yurgizganlar, afg‘on urushini boshlaganlar, “o‘zbeklar ishi”, “paxta ishi” mojarosini o‘ylab topgan g‘alamislar barbod etadi. Rustam halokati mana shu mudhish siyosatga zo‘r bir aybnoma kabi yangraydi.

Rustam – urush odami, urush qurboni. Yozuvchi Rustam sarguzashtlari orqali afg‘on urushi lavhalarini butun dahshati bilan bor holicha ko‘rsatadi. Afg‘on urushi qatnashchilarining guvohlik berishlaricha, jang lavhalari bamisoli jangchi ko‘zi bilan ko‘rib, qalbdan qog‘ozga tushirilganday chiqqan. Ayni paytda roman inson shaxsi, qalbi, ruhiyatining davlat, tuzum, ijtimoiy mafkura, hatto din siyosatga bo‘y sunmaydigan g‘aroyib jihatlarini talqin etish bobida ham jiddiy yangilik bo‘ldi. Asardagi urush ifodasi, talqini bu jihatdan xarakterli. Urush talqini romanda tamomila o‘zgacha. Avvalgi urush haqidagi asarlardan farqli o‘laroq, bu yerda qarama-qarshi kuchlarni do‘st-u dushmanga, oq-u qoraga, “biznikilar” va “raqiblar”ga ajratish yo‘q; bu yerda g‘olib-u mag‘lublar, qahramonlar-u noqahramonlar yo‘q. Faqat urush qurbonlari, tuzum, mafkuraviy ayirma, raqobat jabrdiydalari bo‘lmish begunoh insonlar bor, xolos. Urush har ikki tomon uchun ham o‘lim, halokat, vayronagarchilik, judolik, musibat, tandagi, qalblardagi jarohat, dahshat – fojia! Yozuvchi faqat afg‘on urushi emas, Ikkinchi jahon urushi hodisalariga ham shu xilda yangicha yondashadi. Romanda shunday epizod bor: oldingi marraga bir haftacha ovqat kelmagan. Oldinda kartoshka dalasi bor. Ukrain yigit Bondarenko bilan soddadil qozoq jangchi kartoshka kavlab kelishga boradilar. Quyuq tuman ichida ular dushmanga – nemis jangchisiga duch keladilar. U ham ochlikdan kartoshka kavlagani kelgan. Nemis ruschani bilarkan. Ular

gurunglashib qoladilar. Gapdan-gap chiqib nemis jangchisi urush joniga tekkanini, uyini, uchta bolasini sogʻinganini aytadi, qozoq esa sakkizta bolasi borligini, kolxozda “molshi” boʻlib ishlashini aytadi. Bondarenko onasini sogʻinib ketganini gapiradi. Qisqasi, ashaddiy “dushmanlar” raqiblikni unutib, bir-birlari bilan hasratlashib, soʻng nemis u yoqqa, qozoq bilan ukrain bu yoqqa – oʻz yoʻliga ketaveradi.

Shoʻro hokimiyati yillarida adabiyotda masalani bu tarzda qoʻyish aslo mumkin emas edi. Bunday talqin burjua patsizifizmi deb qoralangan boʻlardi.

Romandagi yana bir holatni, aniqrogʻi Komissarning umr yoʻldoshi Nazira talqinini ham eslaylik. Komissar bilan Nazira ikkisi ikki olam. Komissar mustabid tuzumning, hukmron mafkuraning chin odami, tuzum yetishtirgan “siyosiy hushyorlik”, “yovuzlik”, shafqatsizlik timsoli. Nazira esa nafosat, poklik, beozorlik ramzi. U – oilada yaxshi beka, erining vafodor umr yoʻldoshi, bolalarining mehribon onasi. Bu mushtipar ayol erining ishlariga aslo aralashmaydi. Yovuz, shafqatsiz odam bilan shunday beozor, munis ayolning bir yostiqqa bosh qoʻyib uzoq yillar tinch-totuv yashashi gʻaroyib hol! Nazira hayotda hech kim bilan olishishni istamagani kabi oʻlimi payti ham osoyishta – beozorgina jon taslim etadi. Inson tabiati va ruhiyatining hech qanaqa qoliplarga sigʻmaydigan bu xildagi shevalari ifodasi oʻzbek milliy adabiyotida XX asrning oxirlariga kelib urf boʻla boshladi. Holbuki, hayotning oʻzida bunaqa gʻaroyib insoniy munosabatlar hamma davrlarda boʻlgan. Shoir aytmoqchi, azaldan koʻp hollarda poklik, nafosat bilan dagʻallik – xunuklik yonma-yon yashashga majbur!

Maʼlumki, har qanday salmoqdor, ezgu gʻoya sanʼatkorona ifodasini topgan taqdiridagina qudratli kuch kasb etadi, asar gʻoyasi esa oʻquvchi qalbini asir etadigan yaxlit sirli-sehrli tasvir ohangi orqali pafosga aylanadi. “Tushda kechgan umrlar” romani “Kuz oʻlim toʻshagida yotgan bemorga oʻxshaydi” soʻzlari bilan boshlanadi. Ilk jumladagi mana shu maʼyus, mungli ohang asar davomida tovlanib, goh sokin, goh shiddatli tus olib oʻquvchining vujud-vujudini qamrab oladi. Asar qahramoni qismati boshdagi oʻsha mungli soʻzlar bilan intihosiga yetadi. “Kuz oʻlim toʻshagida yotgan bemorga oʻxshaydi” jumlasini faqat qahramon qismati-

gagina emas, asarda aks etgan davr, muhit, jamiyatga ham daxldor – darhaqiqat o'sha yillari jamiyat bamisoli o'lim to'shagida yotgan bemor kabi talvasada. O'zbek adabiyotida bu qadar ma'yus, mungli roman yaratilmagan edi. Roman bu jihatdan hazrat Navoiyning eng hazin, mungli dostoni "Layli va Majnun"ni yodga soladi. Dostonni o'qiyotib kitobxon Layli bilan Majnun bu foniy dunyodan baxtini topolmasligini, cheksiz g'am-anduhlardan faqat o'lib qutilishlari mumkinligini his etib turadi. "Tushda kechgan umrlar" romanida o'zgacha vaziyat, muammo, mojarolar. Biroq bosh qahramon boshiga tushgan savdolardan qutilish yo'li o'sha – Rustam tipidagi oriyatli, vijdonli yigitni bu mudhish ko'rgiliklardan o'limgina mosuvo etadi.

Romandagi Komissar ham fojiaiy obraz. Bu odamning Soat G'aniyevich degan binoyidek ismi sharifi bor. Biroq ism-sharifidan ko'ra Komissar degan laqabi unga yarashadi. U shaxs emas, kasb, mansab-martaba, mafkura odami; bu odam butun umri davomida mustabid tuzum, totalitar rejim mafkurasi, siyosati qalqoni va qilichi sifatida ish ko'rdi, necha minglab odamlarning hayotini, dilini jarohatladi, yostig'ini quritdi.

Shunisi ham borki, bu odam hayotining kuzi allaqachon boshlangan, u ham o'lim to'shagida yotgan bemorni eslatadi. Biroq, u buni tan olgisi kelmaydi, allaqachon otdan tushgan bo'lsa-da egardan tushmagan. Mushtipar ayoli olamdan o'tdi, farzandlari, kelini o'zgacha yo'l tanlab undan yuz o'girdi, ikkinchi umr yo'ldoshi unga xiyonat qildi; hayotda birorta do'sti, tayanchi qolmadi; u suyangan jamiyat, e'tiqod qo'ygan mafkura nuradi, quladi. O'zini bilgan, anglagan odam uchun bular naqadar katta fojia! Bu kimsaning fojeasi shundaki, u mana shunday fojiani his qilishdan mahrum, shu holda ham bu inson qiyofasidagi mahluq hech narsa ko'rmagandek yashashda davom etadi... Komissar qismatida zamonning muhim bir insonparvarlik mohiyati ifodasini topgan. Uzoq yillar odamlarga zug'um o'tkazib kelgan bu kimsadan hech kim, hatto u tufayli hayotda ko'p jabr-u jafolar ko'rgan Qurbonoy ham o'ch olishni xayoliga keltirmaydi. Bu noshukur banda esa bunaqa bag'rikenglikni anglashga, qadriga yetishga noqobil.

“Latif lirika bilan serzavq hayotbaxsh yumor, xalqona hazil-mutoyiba orasi bir qadam. Yangi o‘zbek adabiyotida latif lirik shoir, nosir borki, deyarli barchasi yumoristik asarlar bitgan, qator yirik jiddiy asarlari bag‘ridan ham hazil-mutoyibalar, hajviy-yumoristik lavhalar munosib o‘rin olgan. Qodiriy, Cho‘lpon, Said Ahmad nasriy asarlaridagi, Mirtemir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she‘riyatidagi serjilo kulgi ularga ajib fayz baxsh etgan. Yillar o‘tgan sayin O‘tkir Hoshimovda ham yumorga, hazil-mutoyibaga moyillik kuchayib bordi. Uning qalamkash do‘stlari, ustozlari haqidagi beg‘ubor, quvnoq tabassum bilan yo‘g‘-rilgan “Shumliklar” turkumi, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”ning talay sahifalari, “To‘ylar muborak” komediyasi, “Ikki karra ikki – besh” qissasi, o‘nlab yumoristik hikoyalari adibning hajviy iqtidoridan dalolat beradi.”⁷ Ayniqsa, 1976-yili yozilib 1978-yili Qo‘qondagi Hamza nomli drama teatrida sahnalashtirilgan “To‘ylar muborak” komediyasi o‘z davrida tomoshabinlarga manzur bo‘ldi. Ogahiy nomidagi Xorazm drama teatrining o‘zida bu komediya ming martadan ortiq qo‘yildi. Asar “Yosh gvardiya” (hozirgi Abror Hidoyatov) teatrida, so‘ng Muqimiy nomli teatrdagi (musiqiy varianti) ko‘p yillar o‘ynaldi, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston teatrlarida sahnalashtirildi.

Diqqat bilan razm solinsa, O‘tkir Hoshimovning ijodiy faoliyati davomida yaratgan har bir jiddiy asari – “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Qatag‘on” – bular XX asr millat ma‘naviyati, ruhiyatining muayyan manzillari kabi taassurot qoldiradi. Millat ma‘naviyati manzillarini zabt etish esa ijodiy jasoratdir.

⁷ Normatov U. Yangi o‘zbek adabiyoti. -T., “Universitet”, 2007. 167-168-betlar.

II BOB

HAYOT HAQIQATI VA BADIY HAQIQAT

Badiiy asarning qimmati, bir jihatdan, adibning hayot haqiqatini qanchalik chuqur va haqqoniy aks ettirishi bilan belgilanadi.

Biz badiiy asarlarda hayot haqiqatining murakkabliklari, turli-tuman qirralari qanchalik yorqin ochilganligini, shakl vositalari hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishga qanchalik xizmat qilganligini tahlil qilish va yoritishga alohida e'tibor bilan qarashimiz kerak. Masalaga shu jihatdan yondashganda O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari», «Ikki eshik orasi» asarlarida hayot haqiqatining badiiy kashf etilishini qisqacha bo'lsada, ko'zdan kechirish qiziqarlidir.

O'tkir Hoshimovning «Qalbingga quloq sol», «Nur borki, soya bor» asarlari kabi «Dunyoning ishlari», «Ikki eshik orasi» asarlari kitobxonlarning ham, tanqidchilarning ham katta qiziqishlari va bahs-munozaralariga sabab bo'lgani bejiz emas. Bu asarlar hayot haqiqatining turli qatlamlarini butun murakkabligi bilan yangicha bir tarzda aks ettirayotganligi uchun ham alohida qiziqish uyg'otayotganligi tabiiydir.

“Badiiy asarning muvaffaqiyatli chiqishi juda ko'p shartlarga bog'liq: asarning xalq dilidagi va tilidagi mavzularga bag'ishlanishi, ilg'or, muhim, katta g'oyalarni ifodalashi, shu g'oyalarni ifodalovchi obrazlar, xarakterlar, sujet va kompozitsiya, badiiy nutq — ana shularning hammasi puxta, pishiq sodda, hissiy, xalqchil bo'lgandagina badiiy asar yaxshi chiqadi. Bunday asar yaratish uchun esa muallif chinakam tabiiy iste'dodga, tajriba bilan pishib yetilgan talantga ega bo'lishi lozim. Yana shuni aytish kerakki, talant egasining har bir asari yangi mazmun va shaklga, yangi ohang va uslubga ega bo'ladi. Ona vafotidan o'rtanayotgan farzand qalbining mungli sadosi, lirik ohang «Dunyoning ishlari»ga qanchalik o'ziga xoslik bag'ishlagan bo'lsa, «Ikki eshik orasi» romanidagi ko'p ohanglilik, kichik Muzaffar Qora amma, Robiya, Shomurod, Husan duma, Orif oqsoqol, Umar zakunchi kabi

turli-tuman personajlar tilidan berilgan hikoyalar ham asarga shunchalik o'ziga xoslik bag'ishlagan.”⁸

«Dunyoning ishlari» qissasi yorug' dunyodan yaqinda ko'z yumgan onasini sog'inib orziqqan yigitning «munojot»i bilan boshlanadi. U tun yarmidan oqqanda uyqusidan uyg'onib, uxlolmay o'ylab yotadi: jimlik, jimlik. Go'yo butun dunyo bir taraf-u, u bir taraf. Shunda xayolida onasi paydo bo'ladi...

Ana shu xayol vositasida berilgan kichik-kichik novellalarning har birida ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning g'oyat turli-tuman lavhalari hayotiy, sodda bir tarzda jonlana boradi. Har bir novellada ona mehribonligining yangi bir qirrasi yo lavhasi ochiladi. O'tkir Hoshimov qissasidagi o'g'il onasi haqidagi xotiralarini alohida-alohida hayotiy lavhalar tarzida hikoya qilib berar ekan, ularning xronologik tartibini saqlamaydi. Yo'q, u asosan ko'nglida paydo bo'lgan farzandlik kechinmalari, tuyg'ulari, fikrlari bilan xotirasiga kelgan lavhalarning eng xarakterlilarini hikoya qilib beradi. Ko'p novellalar muayyan bir o'y, tuyg'u, kechinma ifodasi bilan boshlanadi va yakunlanadi. O'rtada ona hayoti haqidagi lavhalar beriladi. Kechinma lavhaning, lavha esa kechinma va fikrning davomi sifatida ulanib ketadi va bir-birining ta'sir kuchini oshiradi.

Qissadagi birinchi lavha «Oq-oydin kechalar» deb ataladi. Unda besh-olti yasharlik paytlarimizda qalbimizga onamiz singdirgan tuyg'ular jonlanadi: kun bota boshlashi bilan onamizning supa va supa atroflariga ko'llatib suv sepishi, yer hidi bilan rayhon hidining qo'shilib ajib tarovat tarqatishi... Kechasi supada osmonga tikilib yotishlar, yulduz va oymoma haqidagi ona-bola gaplari. Onamizning oymoma bilan bog'liq termasi yoki ertagi... Ha, «Oq-oydin kechalar» novellasidagi voqealar, kechinmalar asar personajiniki emas, xuddi o'zimiznikiday bo'lib tuyuladi, ruhimizni qamrab oladi:

«Oyim oyga tikilib turib ohista pichirlar edi:

⁸ Shukurov N. So'z sehri, she'r mehri. -Samarqand. Zarafshon, 1992. 125-bet.

Oymoma hilla,
Qanotlari tilla,
Subhonollo sizga
Umr bersin bizga.

Shunday deb boshimni silardi... Oymoma esa bu sehrli qo'shiqni yana bir eshitgisi kelgandek muallaq to'xtab qarab, yulduzlar o'ychan ko'zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi...

Yulduz to'la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorqin yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so'ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir?»

Qissada hikoyalarning ana shunday lirik kechinmalar, o'ylatuvchi fikrlar bilan boshlanishi va tugallanishi asarning samimiy lirizm bilan yo'g'rilishini ta'minlagan.

Qissadagi «Tasalli», «Tush» deb nomlangan ikkinchi, uchinchi novellalar ona o'limidan so'ng iztirob chekib yurgan farzandning holati va kechinmalarini juda ta'sirli qilib ifodalaydi.

Inson qalbi aslida ezgu xislatlarga, nozik his-tuyg'ularga to'la. Lekin bu tezkor asrimizda, yuz xil ishlar, tashvishlar bilan to'la zamonamizda insonning mehr-u shafqatdek bebaho xislati yuzini ba'zan kul bosib qolayotgandek yoki u xislatlar kurtaklab, naychalab ko'karishdan to'xtab qolayotgandek. Shuning uchun ham kullarni puflab tashlab, cho'g'ni alangalatish, kurtak-naychalarga suv purkab ko'kartirish g'oyat muhim. Haqiqatan ham, onaning bitmas-tuganmas shafqatini biz hamma vaqt ham o'z vaqtida anglab yetmaymiz. Undan ayrilgandan keyin har kun, har qadamda buni his eta boramiz. Onamiz tirikligida esa uning mehribonchiliklariga ba'zan zarda bilan, ba'zan kulibroq javob beramiz. Ona va farzand munosabatlarining ana shu ziddiyatli qirralari qissada real aks etadi.

«Tush» lavhasi, «Tush ko‘rsam, onam chiroq ko‘tarib yurganmish», deb boshlanadi. Farzand bir kuni uyga yarim tunda qaytadi. Onasi chiqib darvozani ochadi. «— Shu vaqtgacha uxlamadingizmi? — dedim zarda qilib, — eshik ochishga sizdan boshqa odam yo‘qmi?

Onam ma’yus jilmaydi:

— Uyqu qatta, bolam. O‘-o‘tiribman...

Ertasiga redaksiyada navbatchilik cho‘zilib ketdi. Qarasam. yana oyimning chirog‘i yoniq.

— Nega uxlamadingiz?

Onam yana ma’yus jilmaydi:

— Bilasanku, bolam, kam uyqu bo‘lib qolganman.

Men nodon onamning kam uyqu bo‘lib qolganiga, tongotar qaytamanmi, onamning chirog‘i muttasil lipillab turishiga xo‘p ko‘nikkan ekanman.

Qaysi kuni yarim kechada uyga qaytsam hamma yoq jimjit, hammayoq qop-qorong‘i. Hamma o‘z oromi bilan.

Tushimda onam chiroq ko‘tarib yurganmish...»

Menimcha, har bir odam bu lavhani o‘qiganda xuddi ana shunday holatni boshdan kechirgandek (kechirmagan bo‘lsa ham», hayajonlanadi. O‘z vaqtida ona qalbining buyuk shafqatiga yetarli mehribonlik bilan javob qaytarmaganligidan o‘ksinadi. Bu o‘ksinish esa, uning qalbida mehru-shafqat kurtaklarini ko‘kartiradi.

Yozuvchi onaning shafiqu mehribonligini tobora yangi- yangi lavhalarda jonlantirib boradi. Qissadagi novellalardan birida tasvirlanishicha, ona qorli qish kunlaridan birida olti-yetti yashar bolasining tomog‘i shishib, og‘rib, bo‘g‘ilib qolayotganligidan talvasaga tushadi, jon holatda bolani ko‘tarib, tunda Hoji buvinikiga olib boradi: paypoqsiz, oyoqda yupqa kalish...

Bola shifo topadi, ona oyog‘ini sovuqqa oldiradi. Bu esa surunkali dardga aylanib qoladi. Keyincha kurortga dam olishga borgan o‘g‘li olib kelgan gilam paypoqni ona qo‘shnilarga ko‘z-ko‘z qilib, shunday mehribon o‘g‘li borligi bilan maqtanadi. Aslida, farzandning gilam paypoq olib kelishi ona

mehribonliklarining bir uchquniga ham javob bo‘lolmaydi. Biroq, ona farzandining ana shu kichik sovg‘asidan ham cheksiz minnatdor, boshi osmonda. Bunda g‘oyat yuksak, olijanob qalb xislati namoyon bo‘ladi.

«Eng og‘ir gunoh» novellasida ham ona shafqatining tengsiz buyukligi hayajonli voqea tasviri orqali ochiladi.

O‘tkir Hoshimov qissasidagi ona o‘z farzandiga mehribon, fidoyi bo‘lganligi uchun bir karra olijanob bo‘lib ko‘rinsa, boshqa bolalarga bitmas-tuganmas mehribonlik ko‘rsatishi bilan yana yuz karra olijanob bo‘lib gavdalanadi. Masalan, u urush yillarida ko‘kragi kasallanib qolgan Niso xolaning chaqalog‘i Tohirjonni saraton issig‘ida qirq kun davomida qo‘shni qishloqqa, uch mahal nariga qatnab emizadi...

«Bola yig‘isi» bobida tasvirlanishicha, ona o‘g‘li bilan mashinada bir yoqqa ketayotgan vaqtida ko‘chada bir kelinchakning go‘dagi g‘ashiqib yig‘layotganini ko‘rib qoladi va: «Mashinani to‘xtat» deydi. Oyisiga «Issiq marojniy olib bering», deb qonqaqshab yig‘layotgan bolani olib yupatadi, loy kiyimlari bilan mashinaga o‘tqazib, ancha joyga olib boradi. Bola ovunadi.

Bu bobning «...o‘shanda onamni nohaq hisoblagan edim. Yo‘q, chamamda, onalarning biz tushunmaydigan, bizning o‘lchovimizga sig‘maydigan o‘z olami borga o‘xshaydi», degan mushohada bilan yakunlanishi kitobxonni yana o‘yga toldiradi, o‘z ko‘ngli bisotini, xislatlarini ona fazilatlari bilan o‘lchashga undaydi.

«Xiyonat» bobida Qahramon kichikligida kinoga borayotgan akalarining «Sen botinkangni kiyib chiq, kutib turamiz», deb aldab ketib qolishi, o‘quvchiligida Qahramon degan o‘rtog‘ining teplitsa oynasini o‘zi sindirib, uning bo‘yniga qo‘yganligi, studentligida yaxshi ko‘rgan qizini eng yaxshi do‘sti aynitib, o‘ziga qaratib olganligi bilan bog‘liq voqealarni qisqa-qisqa tarzda hikoya qiladi. Lekin, ana shunday og‘ir bir vaziyatda yana ona o‘g‘li boshini silab, farzandining xayol dunyosiga yorug‘lik olib kiradi. Har safar ona: «Qo‘yaver, o‘g‘lim, ba‘zan shunaqasi ham bo‘ladi, faqat sen o‘zing

shunday qilma», deb aylanib-o'rgiladi. Farzandining zulmat qoplagan qalbida nur yiltillaydi va u o'ylay boshlaydi. «Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga! Biron marta, aqalli bir marta xiyonat qildimi? Faqat ona o'z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi. Ehtimol, inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotgani shundandir!»

Ha, bu dil hayqiriqlari qandaydir sentimental kayfiyat emas, balki eng ezgu insoniy fazilatlarning, ona qalbi olijanobligining himoyasiga posbonlik nidosidir.

Xullas, «Dunyoning ishlari» qissasi onaning mehribonligi, jafokashu zahmatkashligi haqida, ona qalbining olijanobligi haqida nasriy dostonidir. Bu qissada tasvirlangan ona o'z xislat, fazilatlari bilan o'g'il ko'nglini ham juda olijanob fazilatlarga to'ldirib boradi. Yoshlikda ona mehribonliklariga, ba'zan, ortiqcha kuyinganlik, qarilik alomati, deb qaragan o'g'il, onadan ayrilganidan so'ng o'zidagi ayrim beparvoliklarni qayta xotirlab o'ksinar ekan, insoniy mehr-muhabbatni ulug'laydi. Uning ko'nglida toshbag'irlik, shafqatsizlik va mehrsizlikka qarshi samimiy insoniy mehr, sadoqat yo'lida tinmay kurash ishtiyoqi tug'iladi. Ona mehriga loyiq va munosib bo'lish hissi qalbida qaynab toshadi.

Bu esa o'ziga xos iste'dod egasi bo'lmish O'tkir Hoshimov qalamining ta'sir kuchidan dalolat beradi.

«Ikki eshik orasi» romani xalqimizning Ulug' Vatan urushi davri, 40—50-yillar tarixida g'oyat qimmatli, hamisha xotirlab turish zarur bo'lgan sahifalarining badiiy manzarasini yaratadi. Roman bu manzaralarni tasavvurimizda jonlantirish bilan qalbimizni goh mungli, goh quvonchli, goh afsus, goh iftixor, goh muhabbat, goh nafrat tuyg'ulari bilan to'ldiradi.

Yozuvchi bu romanda xalqimizning Ulug' Vatan urushi va mehnat frontidagi mislsiz qahramonliklarini, oddiy odamlarimizdagi mehnatkashlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik, mehribonlik,

samimiylilik, rostgo'ylik, kamtarlik, ayrim shaxslardagi qalloblik, egrilik, xiyonatkorlik xislatlarini real tasvirlash orqali shunday tuyg'ular uyg'otadi.

Romandagi har bir voqea sujetning zarur qismi sifatida keladi, kitobxon oldingi voqealar oqimi tufayli kutayotgan voqeaning ifodasiga aylanadi. Shu bilan birga har bir voqea romandagi obrazlar xarakterini namoyon qiluvchi ko'zgu rolini o'ynaydi.

Romanning «Birinci qismi»dagi boblarda Ulug' Vatan urushidan so'nggi, aniqrog'i, 1948-50- yillar voqealari tasvirlanadi. Bular «Kichkina Muzaffar hikoyasi» tarzida uning sarguzashtlari sifatida beriladi. 3-4 yashar Muzaffarning frontovik, cho'loq dadasi bilan ayasiz yashashi, buning azoblarini g'oyat xarakterli, hayotiy lavhalarda tasvirlash jarayonida Shomurod, uning opasi «Qora amma» va kichik Muzaffar xakteri ochila boradi. Shomurod invalidligiga qaramay, dalada og'ir qo'l mehnati bilan shug'ullanadi. Shomurod Muzaffarni tashlab ketib qolgan xotini chiroyli Ra'no haqida og'iz ochmaydi, tishini-tishiga qo'yib chidab yurgani eng azobli pallalardagina yuzaga chiqadi.

Shomurod qayerga borsa, o'g'ilchasi Muzaffarni yo yelkasiga o'tqazib, yo qo'lidan yetaklab olib yuradi. Lekin Muzaffar juda sho'x, tinmagur. Shuning uchun u har xil kulfatlarga tez-tez duch keladi. U ammasinikida o'ynab yurganda katta qora mushukni tutib, xumga qamamoqchi va undagi kalamushni ushlattirmoqchi bo'ladiki, bu qiliqlar yosh bola shaddod-u sho'xligining borib turgan xarakterli namunasi sifatida hayot haqiqatini yorqin badiiy haqiqatga aylantiradi. Albatta, mushuk Muzaffarning qo'lini tirnab qochadi. Bolaning sho'xliklari avval kulgingizni qo'zg'asa, oqibatda qarovsiz bolalikka achinish tuyg'usini hosil qiladi. Qora amma Muzaffar yarasiga qorakuya bosib mehribonliklar ko'rsatganda ko'nglingiz og'rig'i biroz taskin topadi. Lekin sho'x bolaga bu kulfatlar saboq bo'larmidi?

Mana, u dadasi bilan dalada. Shomurod urushda yaralangan cho'loq oyog'ini ayamay polizda ter to'kib ketmon chopish bilan band. Muzaffar

qayrag'ochga chiqib chumchuq bolasini olaman deb yana yiqilib tushdi, qo'li sindi, dod-voy boshlandi. Shomurod cho'loqlana-cho'loqlana halloslab kelib uni ko'tararkan, hech narsa demay to'g'ri Komil tabibnikiga jo'naydi. Tabib Muzaffar qo'lini taxtakach qilib bog'laydi va yaxshi gaplar bilan uning ruhini ko'taradi. Shomurod Muzaffarni uyga olib kelib yotqizgandan keyingina yuragi tubida yotgan butun g'azabi, alami yuzaga chiqadi. «o'ldiraman, o'ldiraman», — deb dodlay boshlaydi u. Shunda siz albatta Shomurod va Muzaffarning shunday azoblar iskanjasida qolishiga sababchi bo'lgan Ra'noni va bularning hammasiga asoschi bo'lgan urushni la'natlay boshlaysiz. Bu epizodlarda ayasiz o'sayotgan bolaning sarsonligi, sho'xliklari ham, xotini boshqa erkak bilan ketib qolgan odamning dramalari ham butun murakkabligi bilan ochiladi. Shomuroddagi mardlik, odamiylik, mehnatkashlik, bardoshlilik yaqqol ko'rinadi.

«Qora amma» frontda bedarak yo'qolgan o'g'li Kimsan haqida o'nlab faryod chekadi, terma aytib yig'laydi, qiynala-qiynala qizi Robiyani Shomurodga nikohlab berish qaroriga keladi.

Bu voqea dahshatli dramatik epizodlarga aylanadi. Axir, Robiya va Kimsan bir-birini sevardi. Kimsan urushga ketganda Robiya «kutaman» deb so'z bergan. «Qora amma» xarakteridagi odamiylik Shomurod va Muzaffarni azobdan qutqarishga urinishi orqali ochiladi.

Robiya xarakteridagi sodiqlik va ilojsizlikdan oh-fig'on chekishning hayotiy asoslari yaqqol namoyon bo'ladi.

Romanning «Ikkinchi qismi»da esa sujet voqealari chizig'i yana orqaroqqa chekinadi. Ya'ni Robiya hikoyasida dadasi Samadovning urushdan oldin 30-yillar yarmida Samarqandda UzDUda o'qigani, xotini kasallanib olamdan o'tishi, UzDUni bitirgach, qizi Robiyani olib Toshkentga, «Qizil dehqon» kolxoziga maktabga ishga kelishi, Husan bobolar uyida yashashi, Kimsan va Robiyaning do'st, aka-singilday o'sib ulg'ayishi keyincha sevishishi tasvirlanadi. Bular sujet voqealari tarixiga oydinlik kiritadi. Orif oqsoqol hashar uyushtirib, maktab binosi qurdiradi. Lekin, bir

kecha mahsus odamlar kelib Samadovni mashinaga bosib olib ketishadi. Robiyaning mashina orqasidan chopib, ko'chada yiqilib qolishi uni Kimsanning yupatishi kabi dahshatli voqealar Robiya hikoyasi orqali beriladi.

Ana shu voqealar bilan bog'liq sujet liniyasi, Muzaffar, Kimsan, Robiya, Shomurod taqdirlarining oqibati haqidagi o'ylar kitobxon e'tiborini to'la qamrab oladi-da, uning ko'nglida savollar qalashib boradi, Yozuvchi sehrgarlik bilan voqealar, taqdirlar oqibatini «sir» tutgan holda yana boshqa voqealar va odamlar tasviriga o'tib ketadi. Roman sujetini ishlashdagi bu sehrgarlik asarning o'qimishlilikini, ta'sirchanligini tobora kuchaytiradi.

Muzaffar va Munavvar sevgisi bilan bog'liq sujet liniyasi ham ana shunday «sir saqlash» usulida g'oyat qiziqarli va hayajonli qilib berilgan. Muzaffar qishloqda 10-sinfda o'qib yurganda sinfdoshi Munavvarni sevib qoladi. Shu sevgi tufayli avval sinfdoshi Sherzod bilan «olishadi». Shunda Qo'zivoy Muzaffar va Sherzodni garov o'ynashga ko'ndiradi. Garovga ko'ra ular navbat bilan «Alvasti ko'prik»dan o'zlarini anhorga tashlashlari kerak. Bu yo o'lim, yo mayib bo'lish degan so'z edi. Munavvar yetib kelib, Muzaffarni bu halokatli qadamdan saqlab qoladi. Keyin yana Muzaffar sevgisi yo'lida g'ovlar chiqadi. Ayasi, dadasi, ammasi, Oqsoqol buva — hammasi Muzaffarning Munavvarga uylanishi mumkin emas degan fikrda qat'iy turadilar. Bu ilojisizlikning sababi kitobxonga ham, ikki yosh va ularning ota-onasi uchun ham alamli fojia bilan yakunlanadi. Bu orada kitobxon voqea oqibati va yoshlar taqdiriga nigoron bo'lib ko'z tikadi, qaltirab-qaqshaydi, yuragi o'ynoqlab hayajonlanadi. Nihoyat, yozuvchiga qo'shilib dil-dilidan yig'laydi, yoshlar muhabbatining fojiali yakunlanishiga sabab bo'lgan urushni la'natlaydi, yoshlarning hissiyotga berilib, ehtiyotsiz qadam tashlashlarining oqibati yomon bo'lishini ko'rib kuyinadi.

Ha, adib bir jihatdan, sujet voqealari rivojiga kitobxon e'tiborini tortib, qiziqishini tobora kuchaytirib borishda katta mahorat ko'rsatadi. Ikkinchi

jihatdan har bir epizodni inson xarakterini yaqqol aks ettiruvchi ko'zguga aylantiradi.

Orif oqsoqol ikki o'g'li Zokir va Shokirdan qora xat kelganda g'am-alam yuki ostida eziladi, lekin g'amni yengadi, kolxozda ishlashni davom ettiradi. Kelini Zuhra Kozim bilan qochib ketadi. Oqsoqol avval azob chekadi, o'rtanadi, qotillik xayoliga beriladi, lekin ahvolni tushunib ularni nikohdan o'tkazadi, bu dardni ham yengadi. U xotini Xolposh xola o'lgach, juda dovdirab qoladi, mozorga borib yotib yuradi. Ammo o'zi ana shunday og'ir bir vaziyatda yurganida ham, Umar zakunchi Olimjonni yantoq bilan savalab qonga bo'yaganini eshitganda birdan qaddini rostlaydi. Xuddi o'sha qadimgi Orif oqsoqolga aylanadi. Raykomga borib birinchi sekretar Abdurahmonovni boshlab keladi, xalq o'rtasida zolim raisning sharmandasini chiqaradi. Raykom sekretari Umar Xo'jayevning faoliyatini tekshirtirib «xalqni partiyaga qarshi qo'yish» deb baholaydi va uni ishdan bo'shatadi.

Bu voqealarda Husan Duma, Orif oqsoqol xarakteridagi xalqparvarlik, qat'iyatlilik, adolatparvarlik, zulmga murosasizlik, Abdurahmonovdagi partiyaviy prinsipiiallik yaqqol ochiladi. Shu bilan birga Umar Xo'jayevdagi shaxsiyatparastlik, ayyorlik va munofiqlik ham butun dahshati bilan namoyon bo'ladi.

Ha, romandagi sujet epizodlari hayotda qandaydir qiziq voqealar bo'lib o'tganini shunchaki hikoya qilib borish uchun emas, insonlar xakteri va psixologiyasini tahlil qilish, yaqqolroq ochib ko'rsatish vositasi sifatida keladi. Bu esa chinakam badiiylik va g'oyaviylikning zarur shartidir.

Romanning 32-bobida Kimsan Husanovning Ulug' Vatan urushi frontlaridagi qahramonliklari, uning dahshatli va qahramonona o'limi tasviri beriladi. Birinchidan, yozuvchining bu o'rinda «shartlilik» formasidan ustalik bilan foydalanganini ta'kidlashimiz kerak. Marhum Kimsan Husanov noma'lum soldatga haykal ochilishi munosabati bilan go'yo tirilib, o'zining frontdagi sarguzashtini hikoya qilib beradi: u Kazelsk

shaharchasi yaqinidagi noma'lum tepalikni himoya qilishda dushman tanklarini yondirib, fashistlarni qirib qahramonlik ko'rsatadi. Lekin asirga tushadi. Fashist ofiserlari asirlar guruhini bir kun Ugra daryosi qirg'og'iga haydab borishadi. U yerda muzi o'yib teshik ochilgan daryo suviga asirlarni navbatma-navbat bo'ynigacha tiqib bir necha minut ushlab turgan holda sovuq urgan odamni ukol bilan «tiriltirish» bo'yicha tajriba o'tkazishadi. Kimsan Husanov bir rus ayolning yosh bolasidan ayirib olinib, yechintirilib daryo suviga, muz ostiga tiqishganini ko'rar ekan, nafrati qaynab toshib, o'ch, qasos olish yo'lini o'ylaydi. Shu payt Kimsanning o'zini muz ostidagi suvga tiqadilar. Kimsan payt poylab «tajriba» o'tkazayotgan ofiser vrachning sochidan changallaydi va uni suv tubiga tortib ketadi.

“Birinchidan sujetning bu epizodi o'ta dahshatli bo'lgani uchun kitobxon diqqatini o'ziga mixlab oladi. Lekin, shu bilan birga fashistlarning yovuzligini, hech qanday vahshiylikdan qaytmasligini, bundan nafratlangan Kimsanda paydo bo'lgan favqulodda qasoskorlik va kuchli qahramonlik xususiyatini yaqqol ochishda bu voqea juda yorqin ko'zgu vazifasini bajaradi.

Xullas, sujet epizodlari romandagi xarakterlarning turli-tuman xususiyatlarini namoyon qiladi, shu bilan xarakterlarning xatti-harakatiyu faoliyatidan, o'zaro munosabatidan tabiiy ravishda sujet epizodlari yuzaga kelib rivojlana boradi. Zotan epik asarda ana shunday qonuniyat zuhur etgandagina undagi obrazlar va voqealar zaruriylik va tabiiylik kasb etadi, har bir epizod sujetning qonuniy qismiga aylanadi.”⁹

«Ikki eshik orasi» romanining muvaffaqiyatini ta'minlagan vositalardan biri undagi chinakam hayotiylik bo'lib, romanda xuddi hayotdagi kabi odmilik bilan tantanavorlik, ko'tarinkilik bilan dramatizm, kulgulilik bilan fojiaviylik yonma-yon yashaydi. Ya'ni o'rni-o'rni bilan goh odmilik, oddiy maishiy hayot lavhalari, goh fojiaviy holatlar yonma-yon yoki ketma-ket kelib, hayotning ichki mazmunini, xarakterlar mohiyatini butun

⁹ Shukurov N. So'z sehri she'r mehri. -Samarqand: Zarafshon, 1992. 134-bet.

murakkabligi bilan ochishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan romanning 17-bobidagi «Yomonning kuchi – yapaloqqa» epizodidagi voqealar gʻoyat xarakterli. Bu epizoddagi lavlagi kavlash jarayonida oddiy kolxozchilardagi mehnatkashlik, zahmatkashlik, qiyinchiliklarni yengish, vatanparvarlik yaqqol ochiladi. Parcha opa rais Umar Xoʻjayev oldida oʻzining chinakam mehnatkashligini koʻrsatib qoʻyish xayolida jon-jahdi bilan lavlagi kavlay boshladi. Ammo kutilmaganda bir lavlagini yarmida chopib qoʻyadi. Shunda rais uni vahshiylarcha haqorat qiladi:

— Qanjiq, nima qilding, qanjiq!

— Men bilmadim-da! Kotta ekan!

— Bilmading? Sen ochofat hammasini bilasan! Lavlagining yarmisini yerda qoldirib, uyingga obketmoqchisan! Ajdaho nafsingga qaynatib yemoqchisan!

Parcha hayron alanglaydi va aytadi:

— Manov kishini qarayla! Jinnimi bu?

— Mana jinni!

Havoda qamchi vizilladi. Parchaning chekkasidan iyagigacha koʻndalang iz tushib qoldi.

— Qochsang-chi! — dedi Nazokat chirqillab, qoch!

...Parchaning yuzida arqondek ikkinchi chiziq boʻrtib chiqdi. Parcha bu gal ham qochmadi. Lekin ilondek toʻlgʻanib turgan qamchini mahkam changallab oldi...

— Qoʻyvor, it emgan! — Zakunchi tishini gʻijirlatib qamchi dastasini yana siltadi.

Parcha kaftini yozib yubordi. Zakunchi orqasiga tisarilib ketdi. Uch-toʻrt qadam gandaraklab bordi-yu oʻqariq pushtasiga qoqilib «tillaxona»ga chalqancha yiqildi. U qirgʻoqdagi kesaklarni tatalagancha emaklab yuqoriga chiqa boshladi. Yuz-koʻzini koʻrib boʻlmas, ogʻzini kappa-kappa ochib nafas olardi».

Mana shu epizodda kolxozchilarning kundalik oddiy mehnati ham, lavlagini bilmay yarmidan chopib qo'ygan kolxozchi ayol bilan zolim rais o'rtasidagi kuchli drammatizm ham, Parchaning qamchilanishi, burnidan qon kelishi bilan bog'liq tragik ziddiyat ham, raisning sharbatxonaga yiqilib, yuz-u ko'zi ifloslanishi bilan bog'liq kulgili holat ham yaqqol aks etgan. Darvoqe, romanda Umar zakunchidan boshqa salbiy tip yo'q. Birgina salbiy tip bilan shunchalik murakkab hayot manzaralarini bera olish kam uchraydigan mahorat namunasi.

Bashorat, Robiya, Zuhralarning kechalari uxlamay traktor bilan yer haydashlarida, Shomurodning invalidligiga qaramay ketmon urib ishlashida, Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabi chollarning keksalikni pisand qilmay, kunni dalada o'tkazishlarida, Qora amma, Robiyalarning ishdan kelgandan so'ng yarim tungacha ro'zg'or ishlari bilan mashg'ul bo'lishlarida ham biz mislsiz matonatni his qilamiz, mehnat, bardosh qiyinchiliklarni yengish garovi ekanligini yaqqol ko'ramiz.

«Ikki eshik orasi» romanidagi fazilatlardan yana biri undagi yorqin xalqchillik va milliylikdir.

Kichkina Muzaffarning choyxonada dadasining ulfatlari tomonidan erkalatilishlarida, Robiya Shomurodning nikoh to'yi, ularning o'g'ilchasi Omonning beshik to'yi, qoraxat kelgan soldatlarga aza ochilishi kabi voqea-hodisalar xalqimizning urf-odatlarini yorqin aks ettiruvchi xalqchillik namunasidir.

Adabiyot so'z san'atidir. Yozuvchi xalq tilidan sinchkovlik va topqirlik bilan foydalangandagina hayotni yorqin aks ettiradi, hayajonlantiruvchi xolatlarda va manzaralar yarata oladi. Bu jihatdan O'tkir Hoshimov Oybek, G'afur G'ulom, A. Qodiriy, A. Qahhor, Said Ahmad an'analarini o'ziga xos usulda davom ettirayotgan adib sifatida namoyon bo'ladi. Tildan ustalik bilan foydalanish natijasida Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib, Umar zakunchi, Shomurod, Kimsan, Muzaffar, Qora amma, Robiya, Bashorat,

Parcha, Ra'no, Xolposh kabi o'nlab obrazlar o'z xarakteri, o'z nutqi, o'z ichki va tashqi olami bilan namoyon bo'ladi.

Orif oqsoqolning har gapida chinakam oqsoqollik, bilag'onlik, xalqqa g'amho'rlik, mehru shafqat ifodalanadi. Unga tengqur chollardan biri bo'lgan Komil tabib esa Orif oqsoqoldan butunlay farq qiladi. U xotiniga ham, bolalariga ham sizlab gapiradigan muloyim odam.

Umar Xo'jayevning qora ichki dunyosi, ayniqsa, romanning «Tagingda oting bormi, uzangi uzilguncha surib qol» bobidagi ichki monologida yaqqol ochiladi. Bu monologida u Orif oqsoqol va Dumalarga, o'zicha xarakteristika beradi:

«Amal kursisiga mindingmi, boshingga temir qalpoq, oyog'ingga temir paypoq kiyib olishing kerak. Ana shundagina o'zingdan yuqoriroqda o'tirganlar boshingga tepsa, joning huzur qilganday iljayasan. Yo'q, faqat, iljayishning o'zi kamlik qiladi. Oyog'ini yalaysan. Qancha qattiq tepsa, shuncha ishtaha bilan yalaysan.

...O'zingdan pastroq turganlarni temir paypoq kiygan oyog'ing bilan tepasan. O'shanda joning haqiqatdanam rohat qiladi». Umar zakunchining bu so'zlarini tinglar ekansiz, «o' ablah-a, ablah-a. Buning qabihligini ko'ring!» — degan fikr paydo bo'ladi xayolingizda.

Orif, Husan, Komil buvalarda, Qora amma, Robiyalarda oliyjanoblik qancha kuchli bo'lsa, Umar zakunchida qabihlik shuncha kuchli! Jamiyat shundaylardan iborat bo'lsa, hayotning ostin-ustin bo'lib ketishi hech gapmas. Xayriyatki, jamiyat ko'proq olijanob odamlardan iborat.

Qora amma va Robiyalarning iztiroblarida, nola-fig'on chekishlarida ularning olijanob qalbi ochiladi:

«Qanday qilay, bolam? O'zing o'yla, axir, Robiyam, sening Robiyang qovjiragan guldek so'lib borayapti. Yoshi o'ttizga qarab ketyapti, o'g'lim! Sovchilar «qari qiz» deb qadamini uzib qo'yganigayam ancha bo'ldi.

Onangni gunohidan o't, bolam! Bu niyat xayolimga kelganiga ancha bo'lgandi. Ammo birovga aytish u yoqda tursin, o'ylashgayam qo'rqib

yuruvdim. Bugun togʻangnikida mana bu «tomoshani» koʻrib aqalli shu norasida goʻdak hurmati, onangdan oʻpkalama, bolajonim».

Bunday ichki monologlar romanning poetikligini, nafosatini, lirik taʼsirchanligini oshirishda katta rol oʻynaganligini ana shu misollar yaqqol koʻrsatadi.

«Ikki eshik orasi» romani gʻoyaviy-badiiy jihatdan baquvvat, original uslubda yozilgan, gʻoyat hayotiy va oʻqimishli asar sifatida adabiyotimizda alohida oʻrin tutadi.

III BOB

Sujet va kompozitsiya birligi.

Badiiy asar kompozitsiyasining qurilishi sarlavhadan boshlanadi. Sarlavha kishiga qo'yilgan ismdek, uning jismiga mos kelishi kerak. Yaxshi topib qo'yilgan, asar ruhini to'liq qamrab olishga erishilgan sarlavha asarning birinchi muvaffaqiyati hisoblanadi. O'tkir Hoshimovning oxirgi yirik asarlari "Tushda kechgan umrlar", "Ikki eshik orasi" romanlarining nomi asarlarning umumiy ruhidan kelib chiqqan.

Mumtoz epik asarlar kompozitsiyasida "muqaddima" yoki "debocha" muhim o'rin tutadi. Zamonaviy shoirimiz Erkin Vohidovning bir qancha dostonlarida har debochadan samarali foydalanilgan. Debocha yoki kirishda asar mavzusiga, g'oyasiga, voqealariga aloqador ba'zi mulohazalar, asarning umumiy ruhiga kirishga doir ba'zi ma'lumotlar bayon etiladi. Shunisi bilan "muqaddima" asar sujetidan ajralib turadi.

"Ikki eshik orasi" romanida berilgan "muqaddima" kompozitsion vosita sifatida o'zini uncha oqlamaydi, chunki, "eng avvalgi bob" deb taqdim etilgan muqaddima, ya'ni "Qurilish-montaj brigadasining boshlig'i Muzaffar Shomurodov hikoyasi" sujet voqeasi hisoblanadi. Ushbu hikoya sujetning tuguni bo'lib, o'quvchini qiziqtiradi, keyingi sujet qismlariga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, keyingi voqealar rivoji uchun zamin hozirlaydi.

Romanda muallif tomonidan berilgan izoh asar kompozitsiyasida alohida vazifa bajaruvchi prologni esga soladi. Yozuvchining bu izohini prolog deya taqdim etilsa, muvaffaqiyatli chiqadi. Chunki, prologda ham ushbu izohda bo'lgani singari asar yozilishiga turtki bo'lgan sabablar, kishilar, davr haqida umumiy bo'lgan ma'lumotlar o'rin olgan. Izoh ixcham bo'lganligi uchun uni to'lig'icha keltiramiz: "Rost bilan yolg'onning o'rtasi – to'rt enlik", degan gap bor, qiziq, nega endi oz emas, ko'p emas, to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi – to'rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko'rganingga ishon maqsad - shu.

Bu kitobdagi ko'p odamlarni o'zim ko'rganman. Ko'plari bilan gaplashganman. Ba'zilarining o'zi bilan, ba'zilarining ruhi bilan, ba'zilarini nimani

gapirgan bo'lsa, shuni qog'ozga tushirdim. Ba'zilar nima gapirganini emas, nima o'ylaganini yozishga majbur bo'ldim. (Nachora, hamma rost gapiravermaydi. Ammo yolg'on gapirayotgan odam ham ichida, baribir, rostini o'ylaydi.)

Xullas, bu savdolar ko'p yillar davomida ko'p kishilarning boshidan kechgan. Ular ustidan hukm chiqarish – sizlarga havola.

Tilimning uchida turgan yana bir andishani aytmasam bo'lmaydi. Ehtimol, siz bu kitobda foje ko'payibroq ketmadimikin, degan xayolga borarsiz. Nachora, avvalo, hayot nuqul bayramdan iborat emas. Urush esa o'yin emas. Ikkinchi jahon urushi ellik million odamning uvoliga qoldi. Shundan yigirma yetti million bizning odamlar edi. Eng aziz, eng asl kishilarimiz. Qolaversa, urush faqat okopdagi jangchilarning joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlarni ham sinovdan o'tkazdi. Mushkul damlarda iymonini, insonligini saqlab qolgan otalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi zamonda bizga o'rnak bo'lsa ne ajab!

Muallif

“Ikki eshik orasi” romanining kompozitsion qurilishi Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” asari qurilishiga o'xshab ketadi. Roman sujeti Toshkent atrofidagi qishloqlardan birida kechadi. Shu bilan birga qishloq kishilarining urushdan oldingi va keyingi hayotidan ham ba'zi hayajonli lavhalar chiziladi. Shunday qilib, romanda kolxoz qurilishi, urush va Toshkent zilzilasi (1966) bilan bog'liq bo'lgan qariyb qirq yillik voqealar qamrab olinadi. Sujet mantig'iga ko'ra voqealar ba'zan o'zga bir mikromaydon Qo'qon qishloqlaridan biriga ko'chiriladi. “Ikki eshik orasi” asarining janrini “xotira roman” atash to'g'riroq bo'ladi, chunki sujetning barcha bo'laklari xarakter va obrazlarning xotiralariga tayanib tiklangan.

Asar kompozitsiyasini, uslubini belgilashda Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” ta'siri seziladi. Chingiz Aytmatov romanida asr voqealari asosan xotira vositasida tiklanadi.

“Ikki eshik orasi” romanida kompozitsion o'ziga xoslikni belgilagan asoslardan yana biri uning muallif nutqi ishtirokisiz bayon etilganligida ko'rinadi. An'anaviy romanchilikda, xususan, o'zbek romanchiligida bu tasvir usuli ilk bor

O'tkir Hoshimov romanlarida ko'rindi. Shunga qadar romanchilikda muallif nutqining o'rnini beqiyos edi. Ba'zan muallif nutqi o'rniga roviy rivoyati yoki hikoyati beriladi, biroq roviy o'z zimmasiga muallif nutqi vazifalarini oladi.

Romanda epik vaqtning kengligi, ya'ni qirq yillik voqealarni qamrab olishi asar qahramonlarining nutqi orqali reallashadi. Qirq yil davomida qahramonlarning yoshi ham, dunyoqarashi ham, xarakteri ham o'zgarib boradi va tabiiy-ki, bu hodisa sujet maromiga voqealar tasviriga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Roman muqaddimasi qurilish-montaj brigadasining boshlig'i Muzaffar Shomurodov hikoyasi bilan boshlanadi va xotima ham uning hikoyasi bilan tugaydi. Sujet voqealari davomida hikoyalar uning turli yoshdagi davrlaridan boshlab hikoya qilinadi.

Romanda Muzaffar hikoyalari tartibiga e'tibor qaratamiz: birinchi bob "Kichikintoy Muzaffar hikoyasi", yigirma ikkinchi bob "Birinchi sinf o'quvchisi Muzaffar Shomurodov hikoyasi", yigirma to'rtinchi bob "To'rtinchi sinf o'quvchisi Muzaffar Shomurodov hikoyasi", yigirma to'qqizinchi bob "Yettinchi sinf o'quvchisi Muzaffar Shomurodov hikoyasi", o'ttiz ikkinchi bob "Toshkent davlat farmatsevtika institutining birinchi bosqich talabasi Muzaffar Shomurodov hikoyasi", o'ttiz beshinchi bob "Ikkinchi kurs talabasi Muzaffar Shomurodov hikoyasi", o'ttiz yettinchi bob "Uchinchi bosqich talabasi Muzaffar Shomurodov hikoyasi".

Romanda Muzaffar hikoyasi uning yoshiga qarab keng qamrov kasb etib boradi. Tabiiyki, boshqa qahramonlar nutqidagi o'zgarishlar ham ularning yoshi bilan bog'liq tarzda o'ziga xoslik kasb etadi.

Romandagi bir voqeaga ikki, ba'zan uch nuqtai nazardan yondashilganligi asarda batafsil realistik uslubning maqomi yuqoriligini ko'rsatadi. Bunday noan'anaviy tasvir usulining qo'llanilishi hayotiy voqelikning, insoniy munosabatlarining nihoyasida murakkab va chigalligini ochib berishga xizmat qilgan.

Romanda asar tilining serqatlamligi yozuvchi tanlagan kompozitsion usulning samarasidir. Birgina Muzaffar obrazining nutqi ham bir necha til

qatlamini hosil qiladi. Kichkintoy Muzaffarning nutqi birinchi sinf o'quvchisi Muzaffar nutqidan, to'rtinchi va yettinchi sinf o'quvchisi Muzaffar tili talaba Muzaffar nutqidan keskin farqlanadi. Xuddi shuningdek, boshqa obrazlar nutqidagi ana shunday serqatlamlilik roman tilining polifonik xususiyatini kuchaytirgan, asar tilining jozibadorligini, estetik ta'sirchanligini va bo'yodorligini oshirgan.

Bundan tashqari asarda hikoyaning mantig'iga muvofiq tasvir usuli ham o'zgarib turadi. Masalan, "Mehr bilan qahr orasi bir qadam" deb nomlangan o'n ikkinchi bob oddiy askar Kimsan Husanovning Robiyaga yozmoqchi bo'lgan ammo yoza olmagan xatidan iborat:

"Ushbu xatim go'zal Toshkentning No'g'ayqo'rg'on qishlog'ida sog'-salomat o'ynab-kulib yurgan dadamlarga, oyimlarga, Robiyaxonga tezda yetib, ma'lum bo'lsinki, o'g'lingiz Kimsandan deb bilursiz. Dada, oyi, sog'-salomat yuribsizlarmi? Oqsoqol, Xolposh xolam, Fotima-Zuhra kelinoyilarim, u yoqda Ra'no kelinoyim, hammangiz sog-salomatmisizlar!

Robiya! Bira to'la to'rtta xatingni oldim. "Ma'lum oshi" qilishganini eshitib juda xursand bo'ldim. Bilib qo'y, sen endi boshi bog'liq qizsan. O'zimmikisan! Oldingda bo'lganimda qulog'ingga aytadigan gapim bor edi. Mayli, ko'pi ketib ozi qoldi. Shu ketishimiz bo'lsa, bahorda fritslarni quvib joyiga oborib qo'yamiz, shekilli. Hozir dushmanning shashti pasayib qolgan."

Intim xarakterdagi bu xatda ham realistik batafsil usul sezilib tursa-da, biroq unda romantik ohang tasvirining kuchayganligini sezish mumkin. Chunki, ko'ngilga yaqin kishisiga, narsalarga, voqealarga, bolaligiga, kishi baribir romantik yondashadi. Bu hayotiy haqiqatni teran anglagan yozuvchi asar tilida romantik ohangga yo'g'rilgan til qatlamini ham kiritadi.

O'ttiz oltinchi bobda Kimsan Husanov hikoyasiga qaytiladi. "Odamlar hushyor bo'ling!" deb nomlangan ushbu hikoya ham yozuvchi fantaziyasining mahsuli:

"Marhumlar hech nimani ko'rmaydi, deb o'ylaysizmi? Marhumlar hech nimani eshitmaydi, deb o'ylaysizmi? Marhumlar hech nimani bilmaydi, deb kim aytdi sizga? Biz hammangizni ko'rib turamiz, hamma gapingizni eshitamiz. Faqat

siz – tiriklar bizning gapimizni eshitmaysiz. Bizning sizdan farqimiz shuki, oldingizga yurib borolmaymiz. Shuning uchun ora-chora tushingizga kirib turamiz. Siz bilan tushingizda gaplashamiz.

Ana oyim! O‘n qadam narida, kaftini tizzasiga qo‘yib, ma’yus ko‘zlarini olislarga tikib o‘tiribdi. Xuddi eshik oldiga chiqib, botib borayotgan quyoshga termilgan ko‘yi yo‘l poylayotgandek. O‘rtamizda yonib turgan gulxan tafti ikkalamizga baravar uryapti. Nariroqda gulsafsarlar ochilib yotibdi. Xuddi hovlimizdagiga o‘xshagan gulsafsarlar. Rostimni aytsam, shu gulni judayam sog‘ingandim...”

Realistik asarda romantik tasvir usulini qo‘llash mumkin. Gap faqat romantik tasvirning realistik tasvir bilan uyg‘unlashib ketishida. Kimsan Husanovning ikkinchi hikoyasi 20 sahifani tashkil qiladi. Ana shu ikkala hikoya, ya’ni Kimsan Husanov tilidan bo‘lgan monologlar realistik tasvir fonida unchalik ham tabiiy chiqqandek taassurot qoldirmadi. Boisi – birinchidan, hikoyalar cho‘zilib ketgan, ikkinchidan, obraz nutqida mantiqiy izchillik yetishmaydi. Masalan, birinchi hikoyada shunday tafsilot keltiriladi:

“ - Dyadya Vasya, dyadya Vasya!

Robiya! Qorni yorilib, ichak-chavog‘i loyga aralashib ketgan odamni ko‘rish judayam dahshat bo‘larkan!

... Qadrdon bo‘lib ketgan kishining ichak-chavog‘ini isqirt qorga aralashib, cho‘zilib yotsa shuni ko‘rib turib yordam berish qo‘lingdan kelmasa, bundan ortiq azob bo‘lmas ekan! (190-bet) ”

Kishi do‘stiga, tanishiga bu manzarani gapirib berishi mumkindir, biroq sevgilisiga bunday tafsilotni chizishi g‘alatiroq. Ikkinchidan, qahramonning nutqini hayotiy qilib ko‘rsatish maqsadida shunday tasvir keltirilgan deydigan bo‘lsak-da, biroq yozuvchi boshqa detallarga murojaat qilishi yoki qahramon nutqini mantiqiy izga solishi mumkin edi.

Bugungi kun romanining tabiati o‘zgardi. Bugun romanda muhtasham epiklik uncha ham muhim bo‘lmay qoldi. O‘tkir Hoshimov romanlariga o‘z davri nuqtai-nazaridan qarashimiz kerak. Agar bugungi roman nuqtai-nazaridan

qaraganimizda “Ikki eshik orasi” romanining voqealari nihoyatda cho‘zilib ketgandek, asar boblariaro kompozitsion nomutanosiblik paydo bo‘lgandek taassurot qoldiradi. Roman yozilgan 80-yillarda romanchilik kengqamrov voqeabandlikni ko‘taradi. Bundan tashqari bu yillarda yozuvchining tasvir usuli, ya’ni uslubi shakllangan edi. Shu bois roman kompozitsiyasi o‘z davrining nasri talablariga to‘la muvofiq keladi.

Gap roman hajmi haqida ketadigan bo‘lsa, ta’kidlash joizki bu yozuvchining dunyoqarashi, uslubidan kelib chiqadigan hodisa. Shu bois, O‘tkir Hoshimov romanlari bugun ham sevib o‘qiladi.

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida qo‘llagan kompozitsion o‘ziga xosliklaridan biri – har bir hikoyaning nutqi alohida sarlavhalar bilan bir necha bo‘laklarga bo‘lib beriladi. Hikoyachi o‘zgarmaydi, biroq alohida bo‘laklarda voqea, voqea o‘rni, tasvir, hikoya ohangi o‘zgarib turadi. Ana shu holatning o‘zi ham asarda voqelikning kengqamrovligini ko‘rsatib turibdi.

Misol uchun beshinchi bobda Robiya hikoyasi to‘rt qismga ajratilib taqdim etiladi:

- 1) “Uyda kelin yig‘laydi, yot bo‘ldim deb yor-yor”,
- 2) “Suymaganga suykalma!”,
- 3) “Yaxshi ko‘rish ayb emas”,
- 4) “Yo maniyam olib keting, yo o‘ldiring”.

Xuddi shuning singari boshqa hikoyachilarning nutqi ham bir necha qismlarga bo‘linadi va voqelikning batafsil manzarasini hosil qiladi.

Roman kompozitsiyasidagi o‘ziga xosliklardan yana biri yozuvchi birgina voqeani turli nuqtai nazardan kuzatadi, birgina voqeani turlicha talqinlarga tortadi.

Asarda Shomurod akaning xotini Ra’noning xiyonatiga turlicha munosabatlar bildiriladi. Voqeani har bir hikoyachi o‘zining dunyoqarashi, didi nuqtai nazaridan ko‘zdan kechirishadi. Masalan, Shomurod aka hikoyasi berilgan yigirma oltinchi bob, Ra’no hikoyasi berilgan yigirma yettinchi bob, Umar zakunchi hikoyasi berilgan yigirma sakkizinchi boblar bir voqea talqiniga bag‘ishlangan. Biroq qarashlar, nuqtai-nazarlar, taassurotlar, har xil.

Ko‘rinib turibdiki, yozuvchi voqelikning mohiyatini har tomonlama ochish uchun ana shunday o‘ziga xos kompozitsion usul tanlagan va asar davomida bu usul o‘zini: oqlagan, voqelik ta’sirdor va jonli tarzda ochilgan.

Asar kompozitsiyasi tuzilishida ayrim boblarda keltirilgan lirik parchalar-ning ham ahamiyati katta. Bu lirik parchalar turli xil ruhiy-psixologik kayfiyatlarni ifoda etishda qo‘l kelgan.

1. “Tog‘da toychoq kishnaydi, ot bo‘ldim deb yor-yor,
Uyda kelin yig‘laydi, yot bo‘ldim deb yor-yor”

(beshinchi bob)

2. “Alla bolam, allayo alla!
Shirin qo‘zim, allayo alla!
Bog‘imdagi toychog‘im alla,
Beshikdagi munchog‘im, alla!”

(O‘ninchi bob)

3. “Oq ilon, oppoq ilon, oydinga yotganing qani,
Men yomondan ayrilib, yaxshini topganing qani?”

(O‘n to‘rtinchi bob)

4. “Duma chol, Duma chol,
Lavlagiga “sharbat” sol”

(Yigirmanchi bob)

5. “Aylama, aylama, aylaganing bor,
Qizlarning ichida saylaganim bor”

(O‘ttiz yettinchi bob)

6. “Jon bolam, jonim bolam
Olloga topshirdim sani,
Ohimga Ollo yetmadi,
Tuproqqa topshirdim sani...”

(Qirq to‘rtinchi bob)

Asosan xalq termalari, laparlardan keltirilgan ushbu she’riy parchalar sujet voqealarida harakatlanayotgan obraz va xarakterlarning ruhiy-psixologik holatini,

hodisalar mantig'ini, qahramonlarning ichki va tashqi qiyofalarini, ma'naviy dunyolarida kechayotgan o'zgarishlarni ifoda etmoqda. Ba'zida intim, ba'zida jiddiy, ba'zida mutoyiba, ba'zida fojea holatlari aks etadi.

“Mehrobdan chayon” romanida Anvar va Ra'noning she'r aytishuvlari ushbu kompozitsion usulning mumtoz namunasi hisoblanadi. Ana shu adabiy an'anani davom ettirgan O'tkir Hoshimov mazkur romanida shu usuldan samarali foydalanadi.

“Ikki eshik orasi”da muallif nutqi vazifasi asar qahramonlari nutqiga qo'shilib ketganligi bois muallif nutqida reallashadigan prolog, epilog, sujetning ekspozitsiyasi, portret, xarakteristika kabi bo'laklari xarakterlar nutqidan joy oladi.

Asarda muallif nutqi ko'rinmaganligi sababli go'yoki muallif bir necha hikoyachiga bo'linib ketgandek tuyuladi. Har bir hikoyachining voqelikdan ko'rgan, anglagan, idrok qilgan haqiqati o'zgacha, go'yoki bir asarni bir necha yozuvchi yozgandek.

Sujet asosidagi konflikt qahramonlar xarakteridagi ziddiyatlar shaklida namoyon bo'ladi.

Adib kundalik hayot voqealarini, qishloq kishilarining mehnat-u tashvishlarini, xatti-harakatlarini, o'zaro munosabatlarini ro'y-rost tasvirlash orqali turli qismat va taqdir sohiblari bo'lgan odamlarimizning yorqin obrazlarini yaratadi. E'tiqodi mustahkam, vijdoni pok, diyonati mahkam Orif oqsoqol, mard va dono Qora amma, Husan duma, Qobil tabib, Robiya kabi oddiy kishilarning insonparvarlik, halollik, Vatan va xalq ishiga fidoyilik, mehr-muhabbat singari fazilatlarini ehtiros bilan tasvirlaydi. Roman qahramonlari hayotda ne-ne qiyinchilik, adolatsizlik, kulfat-u ko'rgilik va hatto, fojealarga duchor bo'lmasinlar, baribir to'g'ri yo'ldan toymaydilar, imonlarini yo'qotmaydilar, adolat va aql bilan ish tutadilar. Chunki, bu kishilar qalbida nur bor, pok e'tiqod-vijdon borki, yozuvchi ularni juda ta'sirli va haqqoniy qilib aks ettirgan.

Masalan, Orif oqsoqol ba'zi rahbarlarning adolatsizligi tufayli kolxoz raisligidan nohaq bo'shatilganida ham, ikki azamat o'g'lining jangda halok bo'lgani haqidagi shum xabarni eshitganida ham shoshib-dovdirab qolmaydi,

ruhiy-tushkunlikka berilmaydi. Chin insonligini amalda namoyon qiladi. Yoki, Qora amma va Husan duma obrazlarida tantilik, odamiylik, sabr-bardosh, mehr-oqibat kuchli. Ular o'zlari qiynalsalar-da, boshqalarga faqat yaxshilikni ravo ko'radilar, atrofdagi odamlarga doimo beminnat xizmat qiladilar.

Romanda Ra'no va Umar zakunchi obrazlari ham muhim o'rin tutadi. Ra'no obrazida frontga ketgan eri, Shomurodga vafosizlik qilib, yo'ldan adashgan suluv kelinchakning og'ir qismati, pushaymon va fojeasi g'oyat ta'sirli qilib ochib berilgan. Umar zakunchi obrazida esa urush davrida qishloqda o'zi xon, ko'lankasi sulton bo'lgan ba'zi raislarning nopok ishlari asosli tarzda fosh etilgan. Murakkab taqdirli Ra'no va Umar zakunchi obrazlari ham hayot haqiqatiga mos qilib yaratilgan.

Ehtimol, romanni o'qib chiqqan ba'zi kitobxonlar, axir, u faqat ikkinchi jahon urushi davriga bag'ishlanmagan-ku, deb e'tiroz bildirishlari mumkin. To'g'ri, asarda tasvirlangan hayotning xayolan xronologiyasini tiklashga urinib ko'radigan bo'lsak, u ancha katta muddatni o'z ichiga qamrab olishini, voqealar taxminan 20-yillardan tortib, 70-80 yillarga qadar davom etishini kuzatish mumkin. Albatta, bir asar hajmida shunchalik katta bir davr haqida atroflicha hikoya qilish qiyin. Shuning uchun yozuvchi ba'zi qahramonlarning taqdirini markaziy nuqtaga o'rni bilan chiqarish misolida mana shu katta hayotning turli bosqichlari haqida goho batafsil, goho yo'l-yo'lakay, gohida esa lirik chekinishlar orqali tasavvur beradi. Aniqrog'i, mana shu bosqichlarga xos bo'lgan xarakterli voqea-hodisalarni muayyan insonlarning hayoti, kechinmalari, taqdir yo'li orqali ko'rsatishga intiladi. Masalan, romanga kiritilgan ba'zi bir asosiy va epizodik personajlar borki, ular yozuvchi uchun tasvir qo'lamini mumkin qadar kengroq olishga imkon bergan. Orif oqsoqol, Husan dumalarning hayoti misolida 30-yillar, ya'ni sobiq sho'rolar davridagi kolxoz tuzumiga oid voqealar ko'z oldimizda jonlangandek bo'ladi. Muallim Samadov taqdirida urushga qadargi hayotda sodir bo'lgan nohaqliklar, shaxsga sig'inish illatlari bilan aloqador voqealar aks ettiriladi. Asar qanchalik keng davrni qamrab olgan bo'lmasin, baribir, barcha voqealarning, insoniy kechinmalarning markazida urush davri, uning odamlar

taqdirida qoldirgan mash'um izlari, achchiq, iztirobli xotiralari tasviri turadi. Mazkur asarda ikkinchi jahon urushi bilan aloqador voqealar qahramonlardagi ma'naviy-axloqiy sifatlarni sinovchi mezon bo'lib xizmat qiladi.

San'atkor qay mavzuga qo'l urmasin, qay kompozitsion turdan foydalanmasin, sujetni qurmasin, hikoyalashning qanday usulini tanlamasin, pirovardida, bular hammasi shu asarda yaratilgan inson obrazini – xarakterlarni jonli va to'laqonli chizish ishiga xizmat qiladi. Binobarin, bu masala ko'p jihatdan asarning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bosh omillardan biridir. «Ikki eshik orasi» romanining obrazlar galereyasi juda boy va rang-barangdir. Asarda 60 nafardan ortiq personajning nomi tilga olinadi. Bulardan o'nga yaqini faol qahramonlar bo'lib, ularni chinakam badiiy xarakter darajasiga o'sib chiqqan obrazlar deyish mumkin.

Orif oqsoqol va Husan Duma, o'zlarining aytishicha, «ming yillik» qadrdon. Ular romanda bir-birlarini to'ldirib, mukammallashtirib boradilar. Orif oqsoqol obrazi o'zining to'laqonligi, kuchli shaxsiyati va etukligi bilan e'tiborimizni tortadi. Oqsoqol obrazi deyarli romanning boshidan oxirigacha voqealarda faol ishtirok etadi va asarning bosh obrazlaridan biri sifatida taassurot qoldiradi.

Orif ota - o'zi savodsiz dehqon. Ammo butun kuchini, borlig'ini, hayotini shu el, shu yurt uchun safarbar etgan odam. Kollektivlashtirish davrida esa shu «Qizil dehqon» kolxozini o'zi bosh bo'lib tuzgan, rais sifatida shu xo'jalikni ilg'or darajaga olib chiqqan.

Romandagi Orif oqsoqol va Husan duma obrazlari ajib tarzda bir-birini to'ldiradi. Ular ikkalasi ko'p yillik qadrdon, eng og'ir damlarda bir-biriga suyanchiq. Orif va Husan duma sobiq sho'rolar tuzumidagi bosmachilik davri dahshatlarini, kollektivlashtirish yillari murakkabliklarini birga, elkama-elka turib, engib o'tishgan.

Husan duma-chinakam saxiyqalb, sodda, samimiy, mehnatkash tipik o'zbek dehqonining obrazidir. U o'z boshidan juda ko'p savdolari o'tkazgan. «Oq poshsho» davrida uni davlat Dumasiga «xalq vakili» sifatida saylashgan. Ammo u

na o'zining vazifasini, na xuquqini bilmay, Duma yig'ilishlarida bir soyadek o'tirib kelavergan. O'shandan buyon uni xalq «Husan duma» deb ataydi. Uni bosmachilar «kolxozga kirsang, ichagingni salla qilib ketamiz» deb qo'rqitsalar ham, «xuddi shuning uchun ham kolxoz bo'laman» deb so'zida qattiq turdi. Uni hatto otishdi, ammo bu yo'ldan qaytara olishmadi. Mana endi fashist atalmish mal'un uning tinchligiga, xalqi, yurtiga ozor etkazmoqda. Ammo endi g'animga qarshi ot surib chiqishga uning jismoniy quvvati etishmaydi, yoshi o'tgan. Lekin undagi mavjud ma'naviy qudrat dushmanga qishloqdan turib ham zarba berishga qodir. Husan ota qo'lidagi eng buyuk qurol- yurtga, xalqqa fidoyilikdir. Bu qurol oldida dushmanning har qanday bombasi ojiz. Mana shu fidoyilik, vatanparvarlik romandagi bir qator sahifalarda Husan duma obrazini yaxlit, to'la qonli va o'ziga xos xarakter sifatida tasavvur qilishimizga imkon beradi.

O'g'li Kimsanni urushga jo'natish epizodida uning oilaning asosiy suyanchig'i «galanska» sigirni sotib, «O'zbekiston tank kolonnasi»ga topshirib kelishi, hech kim qo'l urmagan ish-sharbatni dalaga tashishi va nihoyat, aravani qutqarishda halokatga uchrab, fojiali halok bo'lishi kabi tafsilotlar ifodasida biz Husan dumaning chinakam fidoyi va jasur inson ekanligini kuzatamiz.

Husan duma yonida uning o'zidek pokiza, sodda va samimiy kampiri – «Qora amma» yuradi. «Qora amma» asarning etakchi qahramonlaridan biri sifatida asarning boshidan oxirigacha faol harakat qiladi. Ko'p o'rinlarda u etakchi hikoyachi-qahramondir. Aksariyat voqealarni, qahramonlarni biz shu ayol nutqi, hikoyasi orqali ko'ramiz. «Qora amma» - bosh harflar bilan yoziladigan Ona obrazi. Bu obraz O'. Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidagi Ona obrazining yanada boshqacharoq shaklda mukammalashgan, sintezlashgan ifodasi deyish mumkin. «Qora amma» urush davrining hamma dahshatlarini boshidan kechirgan, ammo onalik, insoniylik sha'nini saqlab qolgan, ularga zarracha bo'lsa-da, dog' tushirmagan minglab onalarning umumlashma obrazi darajasiga ko'tarilgan.

O‘zi qop-qora, ko‘rimsiz, cholining ta‘biri bilan aytganda, bu «pakana» kampir oiladagi, qishloqdagi har bir kishining taqdiri, eng kichik uy-yumushlaridan tortib, urush va butun dunyo tashvishlarini elkasida ko‘tarib kelgan matonatli insondir. «Qora amma» birinchi navbatda mehribon, saxiyqalb onadir. U Robiyani o‘z qizidan ortiq sevib, asrab-avaylab, voyaga etkazadi. Biz boshda hatto uni Robiyaning onasi, deb ham qabul qilamiz, keyinchalik uni asrab olganligini anglaymiz. Uning odamiyligiga tahsinlar o‘qiymiz. Robiyani Shomurodga xotin bo‘lishga ko‘ndirish epizodlaridagi uning vijdon azoblariga, ikkilanishlariga, iztiroblariga achinamiz, u bilan birga iztirob chekamiz. Shomurodning taqdiri, kelini Ra‘noning bevafoqligi «Qora amma» ni ruhiy azoblar girdobiga soladi. Urushdan qaytmagan o‘g‘li Kimsandan ayrilish uni bir umr o‘rtaydi, Robiyani unga unashtiganda qanchalik xursand bo‘lgan bo‘lsa, uni ukasi Shomurodga olib berishda o‘g‘lini yana bir qayta ko‘mgandek bir holatga tushadi.


O‘zining shunchalik g‘am-tashvishlari yetmagandek, «Qora amma» «biz ham mayli, rabochiylarga qiyin bo‘ldi» deb boshqalarning tashvishini tortadi, non o‘g‘irlab, qo‘lga tushgan bolakayni olomonning tayog‘idan qutqarib qoladi, o‘g‘illaridan «qora xat» kelgan Orif oqsoqol, Umar zakunchi kaltaklagan Olimjon, qo‘li singan Muzaffarlar bilan birgalikda azob tortadi.

O‘.Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani ancha uzoq tarixiy davrni qamrab olgan, urush dahshatlarini va uning ma‘naviy oqibatlarini murakkab, fojiali taqdirlarda ko‘rsatib bergan, xarakterlar puxta ishlangan, sujet va kompozitsiyasi, uslubi o‘ziga xos, tili ravon va shirali asar bo‘lib, adabiyotimizdagi urush davri mavzusiga bag‘ishlagan asarlarning eng saralaridan biri bo‘lib qolishi shubhasizdir.


“Ikki eshik orasi” romanida obrazlarni umumlashtirish va individuallashtirish masalasi o‘zaro uzviy birlikda hal qilingan. Ana shunga ko‘ra asardagi asosiy obrazlargina emas, balki Rashid abzi, Bashor opa, Parcha, Oysara, Samadov singari epizodik obrazlar ham kitobxon yodida uzoq saqlanib qoladi. Asarda sun‘iylik yo‘q. Aksincha, ishontirish san‘ati kuchli. Muallif qaltis, murakkab

narsalarni ham favqulodda topqirlik bilan ishonarli qilib tasvirlaydi. Qora ammaning o‘z o‘g‘li Kimsanning sevgilisi Robiyani ilojsizlikdan Shomurodga to‘y qilib uzatishi, Orif oqsoqolning yoshlik qilib “yo‘ldan ozgan” keliniga mardlik bilan adolat qilishi, qismatlari chalkashib ketgan Muzaffar va Munavvar sevgisi tasvirlangan sahifalarda bu fazilat, ayniqsa, ochiq ko‘rinadi. Romanda har bir voqea, har bir tafsilot puxta asoslanib, chuqur tasvirlangan. Yozuvchi bolani bolaga xos, kampirni kampirga xos, kelinni kelinga xos, cholni cholga xos xususiyat, fe‘l-atvor va til bilan ta‘minlay bilgan.

“Ikki eshik orasi” konfliktida sevgi uchburchagining ahamiyati katta. Bu uchburchakni quyidagi sxemada ko‘rsatish mumkin!



Shu bilan birga yana bir uchburchak halqasi mavjud. Bu quyidagicha:



Tuyg‘ular va fikrlar, dunyoqarashlar qarama-qarshiligi birinchi uchburchakda g‘oyatda rang-barang va dramatik shiddat bilan tasvirlangan.

Ikkinchi uchburchakda esa hissiyot va kechinmalar aro ziddiyat ko‘zga tashlanadi.

Xullas, “Ikki eshik orasi” romani sujeti va kompozitsiyasi mutanosibligi masalasini kuzatib, shunga ishonch hosil qilish mumkinki, mazkur asar yozuvchining oldingi romanlaridan ko‘ra voqelikni har tomonlama chuqur ochib berganligi, xarakterlarining ranginligi, konfliktlarning o‘tkirligi bilan yozuvchi

ijodida alohida sahifani tashkil qiladi, yozuvchining badiiy mahorati yuksalganligidan dalolat beradi.

XULOSA

O‘tkir Hoshimov ijodini publitsistikadan boshladi, 1962-yili “Po‘lat chavandoz” nomli ocherklar to‘plami bosilib chiqdi. U badiiy ijodga juda erta mayl bildirgan, 5-sinfda o‘qib yurgan kezlari dayoq she‘rlar, hikoyalar mashq qila boshlagan bo‘lsa-da, “To‘rt maktub” nomli ilk hikoyasi 1963-yili matbuotda bosilib chiqdi. Shu hikoya asosida “Cho‘l havosi” qissasi yozildi. “Sharq yulduzi”da bosilgan bu qissa haqida yosh muallif Abdulla Qahhordan maktub oldi. “O‘tkir! “Cho‘l havosi”ni o‘qib suyunib ketdim. Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo‘ladi, qissa juda sof, samimiy, iliq, tabiiy, rohat bilan o‘qiladi”, deyiladi o‘sha maktubda. Bunday iliq so‘zlar yosh yozuvchiga dalda beradi. So‘ng u birin – ketin “Odamlar nima derkin”, “Shamollar esaveradi” qissalarini yaratdi. Xususan, “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol” qissalari adabiy tanqidchilikda qizg‘in bahs-munozara qo‘zg‘atdi. Bu qissalari uchun u 1976-yili Yoshlar mukofotiga sazovor bo‘ldi.

60-70-yillar adabiyotida adashgan odamning fojiasini aks ettirgan o‘nlab asarlar paydo bo‘ldi, ammo ular orasida san‘at darajasiga ko‘tarilganlari oz, juda oz “Bahor qaytmaydi” qissasida yozuvchi iste‘dodli, biroq iste‘dodi qadriga yetmagan, yetolmagan, ulug‘ maqsadlardan mahrum xudbin yigitning tanazzul tarixi-ruhiy-ma‘naviy inqirozini san‘atkorona tahlil etib berdi. Ana shu san‘atkorona tahlili – tasvirning tuyg‘ularga boyligi va samimiyati bilan ko‘pchilik qalbiga yo‘l topdi, ko‘plarni hayajonga soldi. Qissa matnida boshdan-oyoq muallifning o‘ta nozik va nafis kuzatishlari, yozuvchi qalbi tebranishlari, rang-barang kechinmalari, zavq-shavqi, armon o‘kinchlari, qisqasi, xilma-xil tuyg‘ular nafasi ufurib yotibdi. “Dunyoning ishlari” boshdan-oyoq nihoyatda yorqin, ajib bir milliy bo‘yoqlar bilan jilolangan. Ayni paytda asar teran bir umuminsoniy, baynalminal tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan. Qissada shunday mulohazalar bor:

“Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo‘shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir

odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib Ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go‘dak bemalol orom oladi”.

“Ikki eshik orasi” – yirik ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy roman. Asar uzoq davrlik voqealarni, ko‘plab kishilar taqdiri, hayot yo‘li, xilma-xil ijtimoiy-axloqiy muammolarni o‘z ichiga qamrab oladi. Roman voqealarining bir uchi 30-yillarning boshlariga, qishloqdagi kolxozlashtirish davri voqealariga borib tushsa, ikkinchi uchi 70-yillarning oxiriga kelib taqaladi. Shunday bo‘lsa-da, romanning markazida fashizmga qarshi olib borilgan urush davri, urush yillaridagi o‘zbek qishlog‘i hayoti, urush va inson, urushning kishilar taqdiriga ko‘rsatgan chuqur ta’siri ular qismatida, zurriyotida, dilida qoldirgan jarohatlari muammosi turadi.

Asarda o‘nlab katta-kichik personajlar mavjud. Qimirlagan jon borki, deyarli barchasi davr dard-tashvishi bilan nafas oladi. Bir ikki epizodda ko‘rinish beradigan raykom kotibi Abdurahmonov, muallim Samadov, Rashid abzi, Vasya amaki, Parcha opa, Zuhra kelin kabi personajlardan tortib, asarning markaziy personaji Muzaffarga qadar – hammasi murakkab, chigal, mushkul taqdir egalari. Yozuvchi yetakchi qahramonlar, xususan, Muzaffar, uning tuqqan onasi Ra’no, boqqan onasi Robiya, otasi Shomurod, o‘gay otasi Umar zakunchi, sevgilisi Munavvar, “Qora amma”, xususan duma, Orif oqsoqol, Bashoratxon, Komil tabib obrazlarini, ularning qalb dunyosini keng va har tomonlama ochadi.

O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani 90-yillar o‘zbek adabiyotida jiddiy voqea, muhim yangilikdir. Romanning kitobxonlar tomonidan iliq kutib olinganligi, tanqidchilikda yuksak baholanganligi, xorijda ham qiziqish uyg‘otgani, oliy o‘quv yurtlari adabiyot dasturi va darsliklarga kiritilgani tasodifiy emas.

Bir qarashda roman yangi yangi o‘zbek adabiyotida muayyan an’anaga aylanib qolgan mavzu-muammolar – mustabid tuzum tanqidi, afg‘on urushi, “o‘zbeklar ishi” qurbonlari haqida bahs yuritadi. Bu mavzu-muammolar haqida ko‘p yozildi, O‘tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” romani orqali bu xususdagi o‘zining betakror, salmoqdor, yangi so‘zini aytdi, aytganda ham o‘quvchini larzaga soladigan, o‘yga toldiradigan qilib ayta oldi. Badiiy asarda,

xususan, romanda yozuvchining yangi soʻzi u yaratgan jonli va koʻlamli shaxslar timsoli orqali gavdalanadi. “Tushda kechgan umrlar” romanidagi talay personajlar, xususan, bosh qahramon – Rustam va Komissar obrazi yozuvchining zamonaviy adabiyotdagi badiiy kashfiyoti boʻldi.

Oʻtkir Hoshimovning «Qalbingga quloq sol», «Nur borki, soya bor» asarlari kabi «Dunyoning ishlari», «Ikki eshik orasi» asarlari kitobxonlarning ham, tanqidchilarning ham katta qiziqishlari va bahs-munozaralariga sabab boʻlgani bejiz emas. Bu asarlar hayot haqiqatining turli qatlamlarini butun murakkabligi bilan yangicha bir tarzda aks ettirayotganligi uchun ham alohida qiziqish uygʻotayotganligi tabiiydir.

«Dunyoning ishlari» qissasi onaning mehribonligi, jafokashu zahmatkashligi haqida, ona qalbining olijanobligi haqida nasriy dostonidir. Bu qissada tasvirlangan ona oʻz xislat, fazilatlarini bilan oʻgʻil koʻnglini ham juda olijanob fazilatlarga toʻldirib boradi. Yoshlikda ona mehribonliklariga, baʼzan, ortiqcha kuyinganlik, qarilik alomati, deb qaragan oʻgʻil, onadan ayrilganidan soʻng oʻzidagi ayrim beparvoliklarni qayta xotirlab oʻksinar ekan, insoniy mehr-muhabbatni ulugʻlaydi. Uning koʻnglida toshbagʻirlik, shafqatsizlik va mehrsizlikka qarshi samimiy insoniy mehr, sadoqat yoʻlida tinmay kurash ishtiyoqi tugʻiladi. Ona mehriga loyiq va munosib boʻlish hissi qalbida qaynab toshadi.

«Qora amma» frontda bedarak yoʻqolgan oʻgʻli Kimsan haqida oʻnlab faryod chekadi, terma aytib yigʻlaydi, qiynala-qiynala qizi Robiyani Shomurodga nikohlab berish qaroriga keladi.

Bu voqea dahshatli dramatik epizodlarga aylanadi. Axir, Robiya va Kimsan bir-birini sevardi. Kimsan urushga ketganda Robiya «kutaman» deb soʻz bergan. «Qora amma» xarakteridagi odamiylik Shomurod va Muzaffarni azobdan qutqarishga urinishi orqali ochiladi.

Robiya xarakteridagi sodiqlik va ilojsizlikdan oh-figʻon chekishning hayotiy asoslari yaqqol namoyon boʻladi.

Romanning «Ikkinchi qismi»da esa sujet voqealari chizig'i yana orqaroqqa chekinadi. Ya'ni Robiya hikoyasida dadasi Samadovning urushdan oldin 30-yillar yarmida Samarqandda UzDUda o'qigani, xotini kasallanib olamdan o'tishi, UzDUni bitirgach, qizi Robiyani olib Toshkentga, «Qizil dehqon» kolxoziga maktabga ishga kelishi, Husan bobolar uyida yashashi, Kimsan va Robiyaning do'st, aka-singilday o'sib ulg'ayishi keyincha sevishishi tasvirlanadi. Bular sujet voqealari tarixiga oydinlik kiritadi. Orif oqsoqol hashar uyushtirib, maktab binosi qurdiradi. Lekin bir kecha mahsus odamlar kelib Samadovni mashinaga bosib olib ketishadi. Robiyaning mashina orqasidan chopib, ko'chada yiqilib qolishi uni Kimsanning yupatishi kabi dahshatli voqealar Robiya hikoyasi orqali beriladi.

Ana shu voqealar bilan bog'liq sujet liniyasi, Muzaffar, Kimsan, Robiya, Shomurod taqdirlarining oqibati haqidagi o'ylar kitobxon e'tiborini to'la qamrab oladi-da, uning ko'nglida savollar qalashib boradi, Yozuvchi sehrGARlik bilan voqealar, taqdirlar oqibatini «sir» tutgan holda yana boshqa voqealar va odamlar tasviriga o'tib ketadi. Roman sujetini ishlashdagi bu sehrGARlik asarning o'qimishlilikini, ta'sirchanligini tobora kuchaytiradi.

Muzaffar va Munavvar sevgisi bilan bog'liq sujet liniyasi ham ana shunday «sir saqlash» usulida g'oyat qiziqarli va hayajonli qilib berilgan.

«Ikki eshik orasi» romanining muvaffaqiyatini ta'minlagan vositalardan biri undagi chinakam hayotiylik bo'lib, romanda xuddi hayotdagi kabi odmilik bilan tantanavorlik, ko'tarinkilik bilan dramatism, kulgulilik bilan fojiaviylik yonma-yon yashaydi.

Badiiy asar kompozitsiyasining qurilishi sarlavhadan boshlanadi. Sarlavha kishiga qo'yilgan ismdek, uning jismiga mos kelishi kerak. Yaxshi topib qo'yilgan, asar ruhini to'liq qamrab olishga erishilgan sarlavha asarning birinchi muvaffaqiyati hisoblanadi. O'tkir Hoshimovning oxirgi yirik asarlari "Tushda

kechgan umrlar", "Ikki eshik orasi" romanlarining nomi asarlarning umumiy ruhidan kelib chiqqan.

“Ikki eshik orasi” romanida kompozitsion o‘ziga xoslikni belgilagan asoslardan yana biri uning muallif nutqi ishtirokisiz bayon etilganligida ko‘rinadi. An’anaviy romanchilikda, xususan, o‘zbek romanchiligida bu tasvir usuli ilk bor O‘tkir Hoshimov romanlarida ko‘rindi. Shunga qadar romanchilikda muallif nutqining o‘rni beqiyos edi. Ba’zan muallif nutqi o‘rniga roviy rivoyati yoki hikoyati beriladi, biroq roviy o‘z zimmasiga muallif nutqi vazifalarini oladi. “Ikki eshik orasi” romanida kompozitsion o‘ziga xoslikni belgilagan asoslardan yana biri uning muallif nutqi ishtirokisiz bayon etilganligida ko‘rinadi. An’anaviy romanchilikda, xususan, o‘zbek romanchiligida bu tasvir usuli ilk bor O‘tkir Hoshimov romanlarida ko‘rindi. Shunga qadar romanchilikda muallif nutqining o‘rni beqiyos edi. Ba’zan muallif nutqi o‘rniga roviy rivoyati yoki hikoyati beriladi, biroq roviy o‘z zimmasiga muallif nutqi vazifalarini oladi.

Romanda Muzaffar hikoyasi uning yoshiga qarab keng qamrov kasb etib boradi. Tabiiyki, boshqa qahramonlar nutqidagi o‘zgarishlar ham ularning yoshi bilan bog‘liq tarzda o‘ziga xoslik kasb etadi.

Romanda asar tilining serqatlamligi yozuvchi tanlagan kompozitsion usulning samarasidir. Birgina Muzaffar obrazining nutqi ham bir necha til qatlamini hosil qiladi. Kichkintoy Muzaffarning nutqi birinchi sinf o‘quvchisi Muzaffar nutqidan, to‘rtinchi va yettinchi sinf o‘quvchisi Muzaffar tili talaba Muzaffar nutqidan keskin farqlanadi. Xuddi shuningdek, boshqa obrazlar nutqidagi ana shunday serqatlamlilik roman tilining polifonik xususiyatini kuchaytirgan, asar tilining jozibadorligini, estetik ta’sirchanligini va bo‘yoqdorligini oshirgan.

Bugungi kun romanining tabiati o‘zgardi. Bugun romanda muhtasham epiklik uncha ham muhim bo‘lmay qoldi. O‘tkir Hoshimov romanlariga o‘z davri nuqtai-nazaridan qarashimiz kerak. Agar bugungi roman nuqtai-nazaridan qaraganimizda “Ikki eshik orasi” romanining voqealari nihoyatda cho‘zilib ketgandek, asar boblariaro kompozitsion nomutanosiblik paydo bo‘lgandek taassurot qoldiradi. Roman yozilgan 80-yillarda romanchilik kengqamrov

voqeabandlikni ko'taradi. Bundan tashqari bu yillarda yozuvchining tasvir usuli, ya'ni uslubi shakllangan edi. Shu bois roman kompozitsiyasi o'z davrining nasri talablariga to'la muvofiq keladi.

Gap roman hajmi haqida ketadigan bo'lsa, ta'kidlash joizki bu yozuvchining dunyoqarashi, uslubidan kelib chiqadigan hodisa. Shu bois, O'tkir Hoshimov romanlari bugun ham sevib o'qiladi.

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida qo'llagan kompozitsion o'ziga xosliklaridan biri – har bir hikoyaning nutqi alohida sarlavhalar bilan bir necha bo'laklarga bo'lib beriladi. Hikoyachi o'zgarmaydi, biroq alohida bo'laklarda voqea, voqea o'zni, tasvir, hikoya ohangi o'zgarib turadi. Ana shu holatning o'zi ham asarda voqelikning kengqamrovligini ko'rsatib turibdi.

Roman kompozitsiyasidagi o'ziga xosliklardan yana biri yozuvchi birgina voqeani turli nuqtai nazardan kuzatadi, birgina voqeani turlicha talqinlarga tortadi.

Asarda Shomurod akaning xotini Ra'noning xiyonatiga turlicha munosabatlar bildiriladi. Voqeani har bir hikoyachi o'zining dunyoqarashi, didi nuqtai nazaridan ko'zdan kechirishadi. Masalan, Shomurod aka hikoyasi berilgan yigirma oltinchi bob, Ra'no hikoyasi berilgan yigirma yettinchi bob, Umar zakunchi hikoyasi berilgan yigirma sakkizinchi boblar bir voqea talqiniga bag'ishlangan. Biroq qarashlar, nuqtai-nazarlar, taassurotlar, har xil.

Asarda muallif nutqi ko'rinmaganligi sababli go'yoki muallif bir necha hikoyachiga bo'linib ketgandek tuyuladi. Har bir hikoyachining voqelikdan ko'rgan, anglagan, idrok qilgan haqiqati o'zgacha, go'yoki bir asarni bir necha yozuvchi yozgandek.

Romanda Ra'no va Umar zakunchi obrazlari ham muhim o'rin tutadi. Ra'no obrazida frontga ketgan eri, Shomurodga vafosizlik qilib, yo'ldan adashgan suluv kelinchakning og'ir qismati, pushaymon va fojeasi g'oyat ta'sirli qilib ochib berilgan. Umar zakunchi obrazida esa urush davrida qishloqda o'zi xon, ko'lankasi sulton bo'lgan ba'zi raislarning nopok ishlari asosli tarzda fosh etilgan. Murakkab taqdirli Ra'no va Umar zakunchi obrazlari ham hayot haqiqatiga mos qilib yaratilgan.

“Ikki eshik orasi” romanida obrazlarni umumlashtirish va individuallashtirish masalasi o‘zaro uzviy birlikda hal qilingan. Ana shunga ko‘ra asardagi asosiy obrazlarga emas, balki Rashid abzi, Bashor opa, Parcha, Oysara, Samadov singari epizodik obrazlar ham kitobxon yodida uzoq saqlanib qoladi. Asarda sun‘iylik yo‘q. Aksincha, ishonitirish san‘ati kuchli. Muallif qaltis, murakkab narsalarni ham favqulodda topqirlik bilan ishonarli qilib tasvirlaydi. Qora ammaning o‘z o‘g‘li Kimsanning sevgilisi Robiyani ilojisizlikdan Shomurodga to‘y qilib uzatishi, Orif oqsoqolning yoshlik qilib “yo‘ldan ozgan” keliniga mardlik bilan adolat qilishi, qismatlari chalkashib ketgan Muzaffar va Munavvar sevgisi tasvirlangan sahifalarda bu fazilat, ayniqsa, ochiq ko‘rinadi. Romanda har bir voqea, har bir tafsilot puxta asoslanib, chuqur tasvirlangan. Yozuvchi bolani bolaga xos, kampirni kampirga xos, kelinni kelinga xos, cholni cholga xos xususiyat, fe‘l-atvor va til bilan ta‘minlay bilgan.

Xullas, “Ikki eshik orasi” romani sujeti va kompozitsiyasi mutanosibligi masalasini kuzatib, shunga ishonch hosil qilish mumkinki, mazkur asar yozuvchining oldingi romanlaridan ko‘ra voqelikni har tomonlama chuqur ochib berganligi, xarakterlarining ranginligi, konfliktlarning o‘tkirligi bilan yozuvchi ijodida alohida sahifani tashkil qiladi, yozuvchining badiiy mahorati yuksalganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Ijtimoiy – siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2009. - 40 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. - 440 бет.
3. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. – Т., «Ўзбекистон», 1997.
4. Каримов И. А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008.

II. Ilmiy – nazariy adabiyotlar:

5. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент, Ўзбекистон, 2002. - 560 бет.
6. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Адабий ўйлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. - 548 бет.
7. Каримов Х. Истиқлол даври адабиёти. – Тошкент: Янги нашр, 2010. -364 бет.
8. Карим Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006. - 232 бет.
9. Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Тошкент: Ёзувчи, 2000. - 280 бет.
10. Мустақиллик даври адабиёти. Адабий танқидий мақолалар, бадиалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2006. - 288 бет.
11. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. -112 бет.
12. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. - 352 бет.
13. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. - 336 бет.
14. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Фан, 2004. - 128 бет.
15. Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002. - 128 бет.

16. Содиқ Санжар. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент: Шарқ, 2005. - 320 бет.
17. Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986.- 408 бет.
18. Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент: Университет, 2001. - 168 бет.
19. Тўйчиев А. Ўзбек романларида макон ва замон. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. - 152 бет.
20. Умунов Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002. - 256 бет.
21. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. - 640 бет.
22. Қуронов Д. Мутолаа ва идрок машқлари. – Тошкент: Академнашр, 2013. - 336 бет.
23. Қўчқорова М. Бадий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Мухаррир, 2011. - 232 бет.
24. Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. 1- жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. - 384 бет.

IV. Badiiy adabiyotlar:

25. Ўткир Ҳошимов. Танланган асарлар. 1-жилд. –Т.: “Шарқ”, 2009. -448 бет.
26. Ўткир Ҳошимов. Танланган асарлар. 2-жилд. –Т.: “Шарқ”, 2009. -446 бет.
27. Ўткир Ҳошимов. Танланган асарлар. 5-жилд. –Т.: “Шарқ”, 2012. -576 бет.

